

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

TARIX KAFEDRASI

Fakultet dekani:

Ochilov O'.S.

Kafedra mudiri:

Rahmonov K.J.

BITIRUV MALAKAVIY ISH

**MAVZU: IBN ARABSHOHNING “AMIR TEMUR TARIXI”
 (“AJOYIB AL-MAQDUR”) ASARI TARIXIY MANBA SIFATIDA**

**5120300- Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) bakalavr darajasini
 olish uchun**

**Tarix ta'lim yo'nalishi
 bitiruvchisi: Shomurodov Shuxrat
 Shodmonovich**

**Ilmiy rahbar: t.f.d., professor
 H.H.To`raev**

Buxoro – 2017

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I Bob. Ibn Arabshoh va uning “Ajoyib al maqdur – fi ta’rixi Taymur” shu nomdagi asari haqida	
1.1. Ibn Arabshohning hayoti va faoliyati.....	9
1.2. Asarning yozilish tarixi va tarixiy ahamiyati.....	16
II Bob. “Ajoyib al maqdur – fi ta’rixi Taymur” asarida Amir Temurning ijtimoiy – siyosiy va harbiy faoliyatining aks ettirilishi	
2.1. Asarda Amir Temurnin tarix sahnasiga chiqishi faoliyati.....	26
2.2. Sohibqironning harbiy mahorati va yurishlari tarixi bayoni.....	35
XULOSA.....	46
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	50
ILOVA.....	52

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Tarixga kirib borayotgan bugungi har bir kun o‘z mohiyati va ahamiyati jihatidan o‘nlab yillarga tengdir. Mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan O‘zbekiston Respublikasida bugungi kunda ko‘p yillar mobaynida to‘planib o‘z yechimini kutib yotgan ko‘pgina muammolar hal qilinmoqda. Bu o‘rinda tarix fani sohasida to‘plangan masalalarni hal qilish, hamda xalqning qalbi va xotirasi bo‘lmish bu qadim fanning nufuzini ko‘tarish, mas’uliyatli vazifalarni belgilab olish borasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 1998 - yil 27 - iyuldagi qarori katta ahamiyat kasb etadi. Qarorda tarix sohasida o‘z yechimini kutib yotgan nazariy va amaliy masalalar bilan bir qatorda jamiyat taraqqiyotining asosiy ustunlaridan biri bo‘lgan tarix fanini rivojlantirish hozirda dolzarb vazifalardan biriga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ko‘p bor ta’kidlab o‘tganlariday “O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbot talab bo‘lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi zarur”¹. O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan so‘ng tarix fani milliy davlatchilik tarixini, O‘zbekiston hududida yuz bergan madaniy, ma’rifiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni xolis va haqqoniy yoritish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ta’kidlaganlaridek, “Zotan tarix – xalq ma’naviyatining asosidir. Ma’naviyat esa, jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuchdir”². Shu sababli ham mazkur vazifani bajarish Respublika hukumati tomonidan davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Mavzuning o‘rganilish darajasi. Mustaqillik bizga boy va betakror o‘tmishimizni, tarixiy va madaniy merosimizni xolisona va ilmiy o‘rganishga

¹ Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Мулоқот. 1998, № . - Б.2.

² Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. / Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. 7 – жилд. Т.: Ўзбекистон, 1999. – Б. 146.

imkoniyat yaratdi. Sobiq sho‘ro mafkurasi xalqimiz, yurtimiz tarixining ko‘pgina zalvorli muammolarini o‘z talablari doirasida, tarixiy xaqiqatdan chekingan holda, buyuk davlatchilik shovinizmi g‘oyalari asosida talqin qilishga majbur qildi. Ana shunday g‘ayriilmiy talqin etilgan masalalardan biri o‘zbek davlatchiligi tarixi muammosidir. Mustaqillikdan so‘ng o‘z milliy davlatchiligimiz shakllantirilayotgan bir sharoitda bu masala g‘oyat katta ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. O‘zbek davlatchiligi tarixi muammosini tadqiq qilishning nazariy yo‘l-yo‘riqlari I. Karimov asarlarida, ma‘ruza va nutqlarida o‘z ifodasini topdi. Birinchi prezidentimiz o‘zbek davlatchiligi tarixi, bugungi holati, kelajagini yaxlit holda ilmiy o‘rganishning tashabbuskori bo‘ldi. Bu umummilliy va umumdavlat ahamiyatiga molik ish edi.

Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov davlatchilik nafaqat ilmiy balki siyosiy masala sifatida qo‘yilganligiga e‘tiborni jalb qildi. U qayd qilganidek: «Davlatchilik bugungi kunda o‘ta siyosiy masala bo‘lib turibdi. Nega deganda, O‘zbekistonda davlatchilik bo‘lmagan deb orqavarotdan tashviqot yuritayotgan... xalqaro jamoatchilikni shunga ishontirishga urinayotgan kuchlar hali ham bor»³. Birinchi prezidentimizning ilmiy xulosalari davlatchilik tarixini yaxlit jarayon sifatida qarash lozimligini ko‘rsatadi. Ana shu 2700 yillik tarixning bir bosqichi bo‘lgan davlatchiligimizning Amir Temur va Temuriylar boshqargan bosqichi alohida ajralib turadi. Bu bosqichgacha o‘zbek davlatchiligi ikki ming yildan ortiq tarixga ega edi.

Bizning tariximiz mustaxkam daraxt ildizlari kabi ming yillik boy o‘tmishga ega. Bu o‘tmish sarmazmun va har qanday mafkuradan xoli va kelajagimiz uchun xolisona fikr uyg‘ota oladigan muarrixlarning izlanishlari va tadqiqotlari natijasidir.

Mana shu ming yillik tariximizni yaratishda o‘zining munosib o‘rniga ega buyuk shaxslar, allomalar, olim va fuzalolar mavjud. Mana shunday ulug‘ zotlardan biri davlatchiligimiz asosiga tamal toshini qo‘ygan, turk qavmini butun

³ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. / Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. 7 – жилд. Т.: Ўзбекистон, 1999. – Б. 148.

dunyoga tanitgan, mustaxkam chegaralarga ega bo'lgan davlatga asos solgan zot bu Amir Temur.

Sohibqiron bobomiz o'zining yetmish yillik umri davomida markazlashgan davlat tuzish bilan birgalikda bunyodkorlik sohasida, xalqparvarlik va yurtsevarlik xislatlarini o'zida mujassamlashtira olgan va buni yurt kelajagi uchun bir qancha tadbirlarni qo'llagan.

Amir Temur shaxsi hayoti va faoliyati o'z davridan boshlab nafaqat mahalliy tarixchilar balki xorij muarrixlari va allomalari tomonidan o'rganilgan va asarlar yartgan. Birinchi prezidentimiz ta'kidlaganidek: "...Ulug' bobomiz tarixi, hayoti va faoliyati insoniyat rivojiga qo'shgan ulkan xissasi nafaqat o'sha zamonda balki, keying asrlarda (XVI-XVIII) va bugungi kunda xorijda – Germaniya, Fransiya, Hindiston, Turkiya, Eron, Pokiston, Suriya va boshqa mamlakatlarda bizdan oldinroq o'rganilgan va ko'proq ma'lumotlar berilgan.

O'tgan 670 yillik davr mobaynida sohibqiron bobomizga bag'ishlab yaratilgan va yozilgan asarlar Yevropada 500 dan ziyod, Sharq tillarida 900 ga yaqin kitoblar tashkil etadi.⁴

Amir Temur haqida yaratilgan asarlar orasida arab olimlarining risolalari kopchilikni tashkil etadi. Badriddin al-Ayniy (1405-yil) o'zining "Iqd al-Juman", Al-Qalqashandiy (1418-yil) "Subh al-A'shav", Al-Maqriziyning (1442-yil) "Kitob al-Suluk", Ibn Kazi Shuxba (1448-yil) "Adx Dxail ala tarix al-salom", Ibn Xotar al-Asqaloniy (1372-1449) ... Ibn Iyos (1524-yil) "Tarix bi Ibn Xaldun ba Rixlatu G'arban va Sharqan", Ibn Do'qmoq va boshqa muarrixlarning sohibqironning serqira faoliyatining ayrim tomonlarini o'z ichiga olgan ko'plab asarlar yaratilgan. Afsuski ularning ko'pchiligi arab tilida va ba'zilar qo'lyozma holida bo'lganligi uchun bizgacha kelib yetmagan.

⁴ Karimov I. A. "Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi". – T.: Asarlar. 5-jild. –B.32.

Amir Temur o'z davlatini aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan. Mana shu davr mobaynida hamkorliksiz istiqbol bo'lmasligini teran va yaxshi anglagan bobomiz Yevropa va Osiyoni bog'lashga xizmat qiladigan ulkan ishlarni amalga oshirgan. Bir tomondan Xitoy, Hindiston, bir tomondan-Fransyava Anglya, yana bir tomondan Rim, Ispaniya, Italiya, Misr va boshqa davlatlar bilan aloqalar o'rnatgan va shu munosabatlarni mustaxkamlashga uringan.

Soxibqiron bobomiz hayoti va faoliyatiga katta qiziqish bildirgan uni o'rgangan, tadqiq etgan, u haqida xolisona va haqqoniy, ayrim hollarda o'zining shaxsiy hayotidagi bo'lgan o'zgarishlar sababli ushbu shaxsga nibattan ba'zan noto'g'ri hamda tarixiy haqiqatdan yiroq bo'lgan ilmiy mushihadalarni yuritgan muarrixlardan bir Suriyalik Ibn Arabshoxdir (1389-1450-y). U o'zining "Ajoyib al-Maqdur fi tarixi Taymur" asarida Amir Temurga bog'liq barcha masalalarni bayon etgan, ya'ni Amir Temurning nasabidan tortib, harbiy yurishlarigacha bo'lgan malumotlarni to'plab, kitob holiga keltirgan. Ammo bizning vazifamiz Ibn Arabshohning Amir Temurga bag'ishlab yozgan "Ajoib al-maqdur" asarini o'rganib, unga obektiv yondashib, o'sha davrda yashagan tarixchilar asari bilan solishtirib haqqoniy tarixni yuzaga chiqarishdir.

Sho'rolar davrida barcha tarixiy adabiytlarda Amir Temur nomini va shaxsini yomonlab, u haqida noxolis haqiqatdan yiroq fikrlar aytilgan bir zamonda Ibn Arabshohning "Ajoib al-maqdur" asari tanqidiy o'rganilib, undagi ma'lumotlardan ilmiy-tadqiqotlarda keng foydalanilgan.

Mavzu tarixshunosligi haqida fikr bildirmoqchi bo'lsak, XV asr arab tarixnavisi Ibn Arabshohning "Ajoib al-maqdur fi-tarix Taymur" ("Temur tarixida taqdir ajoyibotlari") nomli asari boshqa asarlardan farqli o'laroq mamlakatimiz xalqlari tarixni yoritishda aloxida ahamiyat kasb etadi. 1436-1437-yillarda yozilgan bu asar, asosan XIV asrning oxiri va XV asrning birinchi yarmidagi o'rta Osiyo va o'rta O'rta sharq mamlakatlar tarixiga doir muhim tarixiy manbalardan biri hisoblanadi. Asarning aksar hollarda muallif Samarqandda yashaganda olgan taasurotlari hamda Movorounnahrda jo'nab ketgach, ilgariroq Temur tomonidan

zabt etilgan bir qancha shahar va mamlakatlarda sayoxatda bo'lib u joylarda ko'rgan va eshitganlari, shuningdek muallif zamondoshlarining hikoyalari tarzidagi faktik ma'lumotlarga asoslanib yozilishi uning ishonchli tarixiy manba ekanligidan dalolat beradi.

Shu boisdan ham "Ajoib al-maqdur" XVII asrdan boshlab qator (fransuz, lotin, , turk, ingliz) tillarga atrjima qilinib, unda keltirilgan ma'lumotlar ko'pgina tadqiqotlarda o'z izini qoldirgani ham fikrimizni tasdiqlaydi.

"Ajoib al-maqdur"ni tanqidiy o'rganib, unda ma'lumotlardan ilmiy tadqiqotlarda foydalanishda sho'ro olimlarining xizmati ham kattadir. Mazkur asarda keltirilgan ma'lumotlarni turli yo'nalishi va darajada jalb qilinib yozilgan yirik tadqiqotlar, risolalar va ilmiy – ommabop maqolalar olimlarimizning Ibn Arabshoh asaridan samarali foydalanganidan dalolat beradi. Lekin shu bilan birga rang - barang faktik ma'lumotlarga boy bo'lgan bu asarni har tomonlama mukammal o'rganilgan deb hisoblash hozircha uncha to'g'ri emas. "Ajoib al-maqdur" da hali tadqiqotchilar diqqatidan chetga qolgan ilmiy, tarixiy, jug'rofiy madaniy ahamiyatga molik talaygina ma'lumotlarning mavjudligi ushbu asarning turli soha mutaxassislari, jumladan tarixchilar, geograflar, san'atshunoslar, tishunoslar tomonidan yanada chuqurroq o'rganishini taqazo etadi. Buning amalga oshirishga esa, bizningcha quyidagi sabablar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda: bir tomondan xanuzgacha "Ajoib al-maqdur" vatanimiz xalqlari tillaridan birortasiga to'lig'icha tarjima qilinmaganligi bo'lsa, ikkinchi tomondan asarning g'oyatda murakkab til va nafis uslubda yozilganligi har xil soxa mutaxassislarning undan bermalol foydalanishga ma'lum darajada noqulaylik tug'diradi. Darvoqe, Ibn Arabshoh asarining shu paytgacha ilmiy asosda bajarilgan mukammal tarjimasini yo'qligiga ham, akademik I. Y. Krachkovskiy ta'biri bilan aytganda, uning "Basiy nafisligi aybdordir".

Yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki, Ibn Arabshoh asari tarixiy manba sifatida katta ahamiyatga ega bo'lib, maxsus tadqiqotni taqazo qiladi. Shuni aloxida ta'kidlab o'tish kerakki, Ibn Arabshohning "Ajoib al-maqdur fi tarixi

Taymur” asari 1992-yil Toshkentda filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tomonidan tarjima qilinib nashr etilgan.

Sohibqiron Amir Temur tarixini xorij tadqiqodchilari nigoxida aks ettirishga befarq bo’lmaslik aksincha, ularning fikr muloxazalari ahamiyatli ekanligini ta’kidlash uchun biz bitiruv malakaviy ishimizni ushbu mavzu doirasida yoritishga qaror qildik.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari: Ushbu asarda sohibqiron Amir Temurning vatanimiz tarixida tutgan o’rni va rolini qay darajada yoritishdagi o’rnini ko’rsatib berishdan iboratdir. Shuni inobatga olgan holda bitiruv malakaviy ishimizda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratishni joiz topdik, hamda o’z oldimizga quyidagi vazifalarni belgilab olindi.

1. Sohibqiron Amir Temur haqida arab mualliflari asarida qay darajada fikrlar bildirilganligiga diqqatini qaratish.
2. Asarning mazmuniga suyanan holda undagi g’oyalarni tahlil etish.
3. Tarixiy merosimizni chuqur va mukammal o’rganish.
4. Ibn Arabshoh asarini o’rganishga qiziquvchilarga ko’maklashish.
5. Mavzuni yoritishda prezident asarlari bilan birgalikda Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari, Shomiyning “Zafarnoma” asarlaridan ham keng foydalanish.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishiga kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovadan iborat.

I Bob. Ibn Arabshoh va uning “Ajoyib al maqdur – fi ta’rixi Taymur” shu nomdagi asari haqida.

1.1. Ibn Arabshohning hayoti va faoliyati.

Ibn Arabshohning to’liq ismi Shahobuddin Ahmad ibn Muhammad ibn Abdulloh ibn Ibrohim bo’lib, u 791 hijriy yili zulqa’da oyinig o’rtasida (1389-yilning 5-noyabrida) Damashq (Suriya) shahrida tug’ilgan.

Ibn Arabshoh asli damashqlik bo’lgani uchun unga ad-Damashqiy, deb nisbat berilsa-da, birmuncha vaqtlar usmonli turklar huzurida (Kichik Osiyoda) yashaganligi uchun ar-Rumiy hamda yoshligidan vataniga ketib, ko’p muddat xorijiy yurtlarda istiqomat qilganligi uchun unga al-Ajaniy deb ham nisbat berilgan. Garchi Eronga hech bir munosabati bo’lmasada Ibn Arabshohni asli Eronlik degan fikr ham uchrab, umrining ko’p qismini sayohatlarda o’tkazganligi uchun Ibn Arabshoh laqabini olganligi qayd qilinadi. Uning ota-onasi va yoshlik yillari haqida deyarli hech qanday ma’lumotga ega emasmiz. 1401-yili Temur Shom (Suriya) ni zabt etgach, damashqdan juda ko’p olimlar, fozillar, me’morlar, rassomlar, kosib va hunarmandlarni Movorounnahrğa olib ketdi. Shular jumlasidan o’n ikki yashar Ibn Arabshoh o’z onasi, birodarlari va ba’zi qarindoshlari bilan Samarqandga olib ketildi. Mana shu nuqtai nazardan qaralganimizda Ibn Arabshoh onasi mazkur toifalardan biriga mansub bo’lishi ehtimol.

Samarqandda yashagan yillarida (1401-1408) Ibn Arabshoh o’z bilimini istagancha oshirishga muyassar bo’lganligi va keyinchalik juda ko’p o’lkalarga sayohat qilganligi u Samarqandda biror tazyiq ostida yashaganligidan dalolat beradi. Sharqshunos Sh. Ryonning (1820-1902) ko’rsatishicha “at-Ta’lif at-Tohir” nomli bir asarida Ibn Arabshoh o’zi haqida yozib, o’z davrining ulug’ podshohlari saroyida bo’lib, ulardan ko’plarining xususan: Hind, Eron, Dehli, Dashti Qipchoq va Rum bilan bir qatorda Chig’atoy hukmdorlari xizmatini o’taganligi to’g’risida

hikoya qiladi.⁵ Garchi muallif qanday xizmatda bo'lganligini yozmasa-da, uning saroy ahllari bilan munosabatda bo'lganligiga qisman asos bor. Chunonchi Ibn Arabshoh Samarqandda bo'lgan davrida shu joydagi ba'zi e'tiborli kishilar bilan o'tkazgan suhbatini o'z asari "Ajoib al-Maqdur" da bir necha bor takrorlaydi. Jumladan, uning o'sha davr yetuk astronomlaridan biri Mavlono Ahmad, shatranj o'yinining mohir ustasi Alouddin va Temurning mashhur amirlaridan biri Olohdod bilan bo'lgan suhbat haqidagi faktlar ham fikrlarimizga dalildir.

O'sha vaqtda Samarqandda istilo etilgan mamlakatlardan keltirilgan taniqli olim, tabib, faqih, san'atkor va hunarmandlarning ko'p bo'lganligi Ibn Arabshoh kabi ilm toliblarining yetarli bilim olishga ijobiy ta'sir korsatdi. Bir tomondan u fors, turk va mo'g'ul tillarini o'rgandi,⁶ ikkinchi tomondan esa Idiku Temur madrasasida Sayyid Shaif Muhammad Jurjoniy (1339-1413) va Shamsuddin Muhammad al-Jazariy (1350-1449) kabi mashhur olimlardan ta'lim oldi.

1408-yildan boshlab Ibn Arabshohning hayoti to'xtovsiz sayohatlar bilan bog'liqdir. Xitoy, Mo'g'ulistonga qilgan sayohatiga bo'lib, ulardan istifoda etdi. Shundan keyin Xorazm orqali o'tib, Ural va Itil (Volg) bo'ylarida bir oz muddat bo'lgach, Dashti Qipchoqning poytaxti Saroy shahiga bordi. Bu shaharda mashhur fiqh olimi va tarixchi Hofizuddin Muhammad ibn Nosiruddin Muhammad al-Bazzaziy (vafoti 827 (1491-1432) huzurida ko'p muddat tahsil etdi. So'ngra Ashtarxon shahriga borib, ancha muddat o'sha yerda yashadi. Uning Abdulvahob ismli o'g'li 813 (1410) yilda Ashtarxonda dunyoga keldi. Keyin Ibn Arabshoh Qrimga o'tib, unda bir qancha ulamolarning suhbatida bo'ldi. Bu joyda uni g'oyatda quvontirgan narsa turkcha "Lunis al-ushshoq" ("Oshiqlar do'sti") nomli asar sohibi shoir va adib Abdulmajid bilan bo'lgan uchrashuvi edi.

⁵ Ibn Arabshoh, Ajoib al-Maqdur (So'z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tayyorlagan). Toshkent "Mehnat", 1992-y, -B.11

⁶ O'sha joyda. -B. 11.

1411-yilda Ibn Arabshoh Qora dengiz orqali o'tib, Andrianopolga turk sultoni Muhammad I ning (1413-1421) saroyga keldi. Dastlab u, sultonning o'g'li Murod II o'qish uchun fors va arab tillaridan turkchaga kitoblar tarjima qilish bilan mashg'ul bo'lib, bir nechta asarlarni tarjima qildi.

Shu paytda sulton saroyida xizmatda bo'lgan Shamsuddin ibn Hamza al-Fanoriy va Burhonuddin Haydar al-Havafiy kabi tasavvuf va mantiq ilmidagi mashhur olimlar bilan do'stona munosabat o'rnatdi. Adabiyot ilmidagi qudratini ifdada ko'rsatish, inshosini zarif va nafisligi hamda birmuncha xorijiy tillarni mukammal bilganligi bilan sultonning hurmat-ehsoni va iltifotiga muyassar bo'lgan Ibn Arabshoh, nihoyat sulton hukumatiga kotib us-sir ("shaxsiy kotib") darajasiga ko'tarildi. Muhammad I ning kotibi sifatida uning nomidan uzoq va yaqin mamlakatlar bilan bo'ladigan yozishmalar arab, fors, turk va mo'g'ul tillarida Ibn Arabshoh (1421-yili) ning inshosi bilan bitilar edi. Turklar poytaxtida o'n yilcha bo'lgach, Ibn Arabshoh 1421-yili Muhammad I ning vafotidan keyin o'z ona yurtiga qaytishga qaror qildi. U 1421-yili Halobga, 1422-yilning yozida esa Damashqqa yetib keldi. So'ng Ibn Arabshoh uzoq muddat o'z ona yurtida yashadi, uyaratgan asarning ayrimlari shu davr mahsulidir.

1429-yili Ibn Arabshoh Makkaga hajga boradi, 1436-yilda esa qohiraga kelib, unda bir qancha muddat yashadi. Uning Qohiraga kelishini Ibn Hojar al-Asqaloni, As-Sahaviy va Abu-l-Mahosin Ibn Tag'riberdi⁷ kabi tarixchilar ma'qul topib, u bilan do'stona munosabatda bo'ldilar.

Qohirada bo'lgan vaqtida Ibn Arabshoh sulton Zohir Chaqmoqning (1438-1453) da'vatiga binoan bir qancha muddat uning saroyida yashadi. Mana shu asnoda u sulton Zohir Chaqmoqqa bag'ishlab, uni madh etib bir asar ta'lif etdi. Uning do'stlaridan tarixchi Ibn Tag'riberdining aytishicha, Ibn Arabshoh Qohiraga bir

7 Ibn Arabshoh, Ajoib al-Maqdur (So'z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tayyorlagan). –T.: "Mehnat", 1992-y, -B. 11.

Ibn Tag'riberdi (1411-1456 yoki 1469) – mashhur Misr tarixchisi. "An-Nujum az-Zohira", "Al-Manhal as-sofiy" kabi qator asarlarning muallifidir.

necha marta kelgan va har daf'a kelganda nasriy va nazmiy asarlaridan unga parchalar o'qib bergan.⁸ Lekin so'ngi keluvda sulton tomonidan ilgarigidek samimiy muomala ko'rmadi. Aksincha, Ibn Arabshohning g'anamlari tomonidan yetkazilgan asossiz ig'volarga ishongan sulton, uni hibsga olishlarini buyurgan. Ibn Arabshoh hibsga faqat besh kun bo'lgan, hibsdan chiqqach, o'n ikki kundan keyin, ya'ni 1450-yilning 25-avgusti kuni vafot qildi va o'sha yer (Qohira) da dafn etildi.

Hayotining aksar qismini o'zga yurtlarda g'ariblikda va sayohatlarda o'tkazgan Ibn Arabshoh muttasil o'z bilimini oshirishga harakat qildi, mashhur ilm ahllari bilan uchrashdi va ulardan imkoni boricha istifoda etdi. Ko'pgina ilmlardan mukammal bilimga ega bo'lganligi sababli Ibn Arabshoh o'z davrining yetuk tarixnavisi, adibi, shoiri va fiqh olimi sifatida mashhur bo'ldi. U fazilatli go'zal xulqli, xush suhbatli kishi bo'lib, fasohat⁹ bilan nasr va nazm insho qilib, ko'pdan ko'p maqbul she'rlar yaratganki, muallifning "Ajoib al-maqdur" asarini varaqlar ekanmiz, buning shohidi bo'lamiz. O'ndan oriq tarixiy-adabiy asarlar Ibn Arabshoh qalamiga mansubdir. Shular jumlasidan, muallifning "G'urra as-sayar fi duval at-turk va t-totor" (Turk va totor sulolalardagi mashhur kishilar siyratlaridan namunalar") asari o'z nomidan ham ko'rinib turganidek, qimmatli manba bo'lishi kerak edi.

Chunki muallif Oltin o'rda va Turkiyaga shaxsan bo'lganligi ustiga, bir necha yil davomida turk sultoni Muhammad I ning shaxsiy kotibi sifatida, uning nomidan Oltin O'rda xoni va Dashti qipchoq hokimlari bilan bitilgan edi. Ibn Arabshoh o'z umrining so'ngi yillarida Qohirada bo'lgan paytida shoir Burhonuddin Bouniy va qozi Homiduddin kabilar bilan munozaraga kirishganda o'z bilimi va adabiyot masalalaridagi ustunligi bilan ularni hayratda qoldirib, oqibatida ularning hasadiga uchradi. Ularni g'iybatga olib kelganman shu hasadchilik Ibn Arabshohning o'limiga sabab bo'lgandi. Mazkur shaxslar bilan mushoaralar jarayonida muallifning "Xitob al-ihob an-noqib va javob ash-shihob as-soqib"

⁸ Ibn Arabshoh, Ajoib al-Maqdur (So'z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tayyorlagan). –T.: "Mehnat", 1992-y, -B. 13.

⁹ O'sha joyda -B. 13.

(“Badan teshuvshi hitobga uchar yulduzdek (tez) javob”) nomli asari vujudga kelgan edi. Muallifning tarjimai holiga oid “Unqud an-nasihat” (“Bir shingil nasihat”) risolasidan parchalar Misr tarixchisi Abul-Mahosin ibn Tag’riberdining “al-Manhal-as-sofiy (“Musaffo chashma”) nomli asari sahifalaridan o’rin olgandir. Shuningdek, nazmiy usul bilan yozilgan tavhid ilmiga doir “Al-aqd al-farid fi ilmi-t-tavhid (“Tavhid ilmida yagona shoda”) nomli risola ham Ibn Arabshohning qalamiga mansabdir.

Abu Sa’d Dinovariy tomonidan abbosiylar xalifasi Qodir Bilohga (991-1031) atab yozgan “Ta’bir al-Qadiriyy nomli asarining nazm bilan Turk tiliga qilingan tarjimasi ham Ibn Arabshoh qalamiga mansubdir. Yuqorida zikr qilingan asarlar va tarjimalar Ibn Arabshohning sermahsul tarixnavis adib bo’lganligini ko’rsatadi. Shu bilan birga, muallifning Temur va temuriylar davri hayotiga bag’ishlanib yozilgan “Ajoib al-Maqdur fi tarixi Taymur” nomli asariuning muhim ma’lumoti hisoblanadi.

Ibn Arabshoh sarlavhadagi “ajoib” so’zi qofiya tarzida “navoiy” ni keltirganligi shubhasiz. Shu xususda ham ushbu asar nashrlari keyinchalik asarning mazmuniga binoan sarlavhadagi “navoiy” (“musibatlar”) o’rniga oddiy qilib “axbor” (“xabarlar”) ni qo’yganlar. Xozirgi vaqtda Damashqdagi (Suriya) Az-Zohiriya kutubxonasida (6893-raqami ostidagi ushbu qo’lyozma 1492-yilda ko’chirilgan) saqlanayotgan qadimiy nusxalaridan biri “Ajoib al-Maqdur fi tarixi Taymur” (“Temur tarixida taqdir ajoyibotlari”) nomi bilan keltrilgan. Asarning boshqa tillarga (masaalan, fransuz, lotin, ingliz,) qilingan tarjimalarda ham Ibn Arabshoh asari “Temur tarixi” nomi bilan atalgan.

Muallif talay o’rinlarda “shu kunlarda, ya’ni 840 (iyul 1436-1437 iyun) yilda” deb zikr qilishicha, asarning mazkur yilda yozilganligi ayon bo’ldi. Mana shunda asoslanib B.B.Bartol’d “Ajoib al-Maqdur” ni 840 (1436-1437) yilda

yoʻzilganligini taʼkidlaydi. I.Yu. Krachkovskiy esa, asar 1436-yilda yaqin vaqtda yoʻzilgan deydi.¹⁰

Ibn Arabshohning manbalariga kelsak, muallif oʻz kitobining muqaddimasida “oʻzim koʻrib mushohada etganlarimu oʻzgalardan eshitganlarimni hikoyat qilishga jazm etdim”¹¹ deb oʻzi foydalangan manbalari haqida hech narsa yozmaydi. A.Yu. Yakubovskiy fikricha, ham mazkur asar uchun asosiy manba muallifning shaxsiy kuzatishlari va oʻsha davr voqealariga aloqador boʻlgan v ishtirok etgan shaxslarning hikoyatlari hisoblanadi.¹² Garchi shu tarzda mulohazalar yuritilsa ham, muallif boshqa manbalardan maʼlum darajada istifoda etganligiga baʼzi dalillar mavjuddir. Umuma, “Ajoib al-Maqdur” ni yozishda mualliftayangan manbalarni toʻrt qismga boʻlish mumkin: 1 oʻsha davr (yaʼni XIV-XV asrlar) da yaratilgan arab va fors tilidagi baʼzi asarlar; 2 Temur haqida xalq orasida tarqalgan rivoyatu hikoyatlar; 3 muallif zamondoshlarining hikoyalari; 4 muallifning shaxshiy mulohazalari.

Temur Hindistonga qilgan yurishi haqida tarixchi Gʻiyosuddin Ali “Roʻznoma-i-gʻazavot-i Hindistin” (“Hindiston yurishi roʻznomasi”) (1403-y) nomli asar yozib, ushbu yurishni mufassal yoritgan. Gʻiyosuddin Ali keltirgan maʼlumotlar muhim tarixiy ahamiyatga molik boʻlib, mazkur davrning baʼzi mualliflari, jumladan Nizomuddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy kabi mashhur tarixchilarning asarlari uchun ham muhim manba rolini oʻtagan.¹³ Shuningdek, Ibn Arabshoh ham Gʻiyosuddin Ali keltirgan maʼlumotlardan bir qadar foydalangan. Masalan, Temur bilan Fors va Iroq hokimi Shoh Mansur (1387-1393) oʻrtasida 1393-yili Sheroz yaqinida yuz bergan jang tafsiloti hikoya qilinsa, bu ahvol yaqqol namoyon buladi. Gʻiyosuddin Ali taʼkidlaganidek, jang oxirida uch kishining qolishi va Shoh Mansurning yalinib-yolvorishiga qaramasdan, Temur navkarlaridan biri uning boshini kesishi ayrim badiiy bezaklar bilan tasvirlansada, Ibn Arabshohning

¹⁰Ibn Arabshoh, Ajoib al-Maqdur (Soʻz boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tayyorlagan). Toshkent “Mehnat”, 1992-y, 17-bet

¹¹Oʻsha asar –B. 18.

¹² Oʻsha asar –B. 18.

¹³ Oʻsha asar –B. 19

“Ajoib al-Maqdur” asarida ham shuntarзда aks ettirilgan. Bundan tashqari, Nizomuddin Shomiyning 1404-yil kuzigacha bo’lgan voqealarni qamrab tugallangan “Zafarnoma” nomli asari ham o’zidan keyin Temur va uning avlodlari davriga bag’ishlanib yozilgan ko’pgina tarixiy asarlarda o’z izini qoldirdi. Bu jihatdan qaralganda, o’sha paytda Samarqandda yashab, shu joyda ta’lim olgan va fors tilini mukammal bilgan Ibn Arabshoh, shubhasiz, mazkur asardan xabardor bo’lgan. Ba’zi tadqiqotchilarning bu xususdagi fikrlari ham ushbu mulohazalarni tasdiqlaydi. Yana shu faktni e’tiborga olish kerakki, Ibn Arabshoh kitobining xotimasida o’zi keltirgan ma’lumotlarni to’g’ri (haqiqat) deb undan oldin yozilgan asarlarni esa yolg’on va uydurma deb yozadi. Bu fikrni e’tiborga olsak, muallif hukmdorlarga nisbatta xayrixohlik bilan yozilgan rasmiy asarlarni ko’zga tutayotgan bo’lsa kerak. Bundan xulosa qilish mumkinki, u ushbu tarixlardan xabardor bolgan. Shuningdek, Ibn Arabshoh ko’pgina mamlakatlarda, jumladan, O’rta Osiyoda sayohatda bo’lgan XIV asr mashhur arab sayyohi Ibn Batutaning (13 4-1378) “Rihlatu Ibn Batuta” (“Ibn Batuta sayohatnomasi”) nomli asaridan ba’zi o’rinlarda bevosita foydalangan. Masalan, Tarobulis amiri Saidmur, bir ayolga tegishli sutni ruhsatsiz ichgan o’z mamlukiga nisbattan qo’lagan chora Ibn Arabshohda ham takrorlanib, bu voqeaning u turk sultoni Boyazid bilan yuz berganini ta’kidlaydi. Yoki arab xafoja¹⁴ qabilasidan bo’lgan yo’to’sar talovchi jamol Luk haqidagi hikoya ham garchi bir qadar farq bilan bo’lsada, Ibn Batuta o’z “Sayohatnoma” sida keltirgan hikoyaga o’xshab ketadi, o’z asarini yozishda Ibn Arabshoh boshqa manbalarga murojat qilganligiga yana bir dalil mavjuddir.

Avval zikr qilganimizdek, Ibn Arabshoh taxminan 1408-yilda Samarqanddan jo’nab ketib, Xorazm, Astraxan, Saroy, Qirm va Andrianapolda bo’ldi. Muallif o’sha joylardagi hokimlar va mahalliy aholidan Temur va uning qo’shini haqida eshitganlarini o’z asarlarida keltirgan. Masalan, Ibn Arabshoh

10 Ibn Arabshoh, Ajoib al-Maqdur (So’z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tayyorlagan). Toshkent “Mehnat”, 1992-y, 25-bet

Xafoja – Iroq yerlarida yashab, Makkaga, hajga o’tuvchilarning yo’lini to’sib, talash bilan mashhur bo’lgan bir qabila.

o'zining boshqa bir asarida (1412) yilda, saroyda To'xtamish o'g'li Jaloluddinxon Temur qo'shinlari ko'rsatgan yomonliklar haqida o'ziga hikoya qilgani to'g'risida yozadi.

Muallif voqealarning shohidlari hikoyasidan ham unumli foydalangan. Jumladan, Sajistonda Temur qo'shinlari qilgan xarobaliklar haqidagi o'z bayonini 833 (1429-1430) yilda Damashqda shayx Zaynuddin Abdulatif ibn Muhammad ibn Abul-Fath Kermoniydan eshitganlari bilan to'ldiradi. Shuningdek, Bag'dodda hokim bo'kim bo'lib turgan qozi Tojuddin Ahmad an-Nu'mon (muallif yozishicha, u 834-yil mukarram oyining boshida (1430-yil,sentabr) Damashqda vafot etgan) hikoya qilgan xabarlariga asoslanib, Temur qo'shinlari tomonidan Bag'dod ahli boshiga solingan bedodliklarni tasvirlaydi.¹⁵

1.2 Asarning yozilish tarixi va tarixiy ahamiyati

Deyarli yarim asr davr voqealarni o'z ichiga olgan "Ajoib al-Maqdur" ko'p sonli "zikr" (bayon) lardan iborat bo'lib, voqealar jarayoniga binoan muallif ularni tadrijiy ravishta keltirishicha harakat qilgan. Mana shu "zikr"larning joylashuvi hamda asarning kompozitsiyasiga asoslanib, bizningcha, uni to'rt bo'limga ajratish maqsadga muvofiqdir. Birinchi bo'limda Temurning nasabi, bolalik va o'spirinlik yillari dastlabki faoliyatiga oid ma'lumotlar keltiradi. Ikkinchi bo'limda Temur Movorounnahrda hokimiyatni mustaqil egallagandan (1370-y) boshlab deyarli umrining oxirigacha olib borgan harbiy yurishlari so'zlanadi. Temur vafotidan (1405-y) keyin taxminan 1436-yilgacha bo'lgan voqealar uchinchi bo'limda bayon qilinadi. Oxirgi to'rtinchi bo'lim esa, Temurning sifatleri, shakl-shamoyillari tabiiy xislatlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Ko'pgina tadqiqotchilar XIV-XV asr O'rta Osiyo, shuningdek Eron, Ozarbayjon tarixini to'liq tasavvur qilish uchun o'sha davrdagi boshqa tarixchilar

11 Ibn Arabshoh, Ajoib al-Maqdur (So'z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tayyorlagan). Toshkent "Mehnat", 1992-y, 25-bet

yaratgan asarlarni “Ajoib al-maqdur” bilan qiyosiy o’rganish zarurligini haqqoniy ravishda ta’kidlaganlar. Darhaqiqat, bu bo’lib o’tgan voqealarning qanchalik tog’riligini aniqlashda yordam beradi. Shu nuqtai nazardan Temurning bolalik va o’spirinlik yillari haqida Ibn Arabshoh keltirgan ma’lumotlar diqqatga sazovordir. Boshqa birorta ham manbada ko’rdatilmasada, Ibn Arabshoh Temurning Kesh (Shahrisabz) yaqinidagi Xo’ja Ilg’or qishlog’ida tug’ilganligini zikr qiladi. So’ngra muallif Temur va uning otasi Tarag’ay hayotidan bir talay rivoyatlar keltiradi. Hamda keyinchalik Temurning o’z atrofiga tengxurlari to’plab o’lja tushirish bilan shug’ullangani haqidagi ma’lumotlarni keltiradiki, bu xabarlarni u Movorounnahrdaligi paytida eshitgan bo’lsa kerak. Chunki bir tomondan Temur hayotini maqtovlar bilan bayon qilgan rasmiy tarixchilarni uning yoshlik va o’spirinlik yillari haqida hech narsa yozmasdan chetlab o’tishlari, ikkinchi tomondan esa, Ibn Arabshohga aloqador bo’lmagan Kastiliya elchisi Klavixoning ham shu yo’sinda yozishi, shuningdek, rus solnomasida ham aynan shu tarzda xabarlar keltirilishi bu fikr ma’lum darajada haqiqatga yaqin bo’lib, o’sha paytda bu hikoyalar xalq orasida keng tarqalganligidan dalolat beradi.

Shaxsiy botirlik hamda boshliqqa xos xislatlari bilan Temur yoshligiga qaramasdan o’z qabilasi barloslar, ayniqsa chig’atoy ko’chmanchi yoshlari orasida shuhrat qozona boshladi. Ibn Arabshoh, uning hamrohlari soni tobora osha borib, qisqa vaqtda uch yuz kishiga yetganligini zikr qiladi. Shundan keyin sodir bo’lgan voqealar xususida “Ajoib al-Maqdur” da keltirilgan ma’lumotlar garchi forscha manbalarda tasvirlanganidek mukammal va tarixlari ko’rsatib aniq bayon etisa-da, hokimiyat yo’lida Temur bilan unung raqiblari o’rtasida yuz brrgan kurashlarni qisman aks etiradi. XIV asrning 60-70- yillarida sodir bo’lgan bu kurashlar hozirgi zamon tarixiy adabiyotida batafsi yoritilgan. Shu qarashlarning xotimasiga to’xtalib, hokimiyat talabida Temur o’zining asosiy raqibi, shu paytgacha Balxda turgan amir Husaynni yengib, 771-yil sha’bon (1370-yil, fevral-mart) uni

Samarqandga keltirib, shu joyda qatl qildi,¹⁶ deb muallif qisman xatoga yo'l qo'ygan. Holbuki, amir Husayn Balxning o'zida qatl qilingan edi. Temur Movorounnahr siyosiy hahotiga XIV asr 50-yillarining oxiri va 60-yillarining boshlarida kirib keldi. Bu vaqtda Chig'atoy ulusiga qarashli bo'lgan Movorounnahr tarqoq, mayday-mayda feodal davlatlarga bo'linib ketgan edi. Kesh (Shahrisabz), Buxoro, Termiz, Badaxshon, Xo'jand, Shosh (Toshkent) va boshqa qator viloyatlar hokimlari o'rtasida adovat, tinimsiz urush-janjallar davom etib kelardi. Bir tomondan mo'g'ul xonlari o'tkazayotgan zulumlar, ikkinchi tomondan mahalliy hokomlar o'rtasidagi to'xtovsiz nizolar mamlakatni mushkul ahvolga tushirib, faqat oddiy xalq ommasini ahvolini og'irlashtirib qolmay, balki hokim sinflarning manfaatlariga ham putur yetkazadi. Mana shunday og'ir vaziyatda siyosat maydoniga chiqqan Temur Movorounnahrda mo'g'ul xonligidan mustaqqil, kuchli markazlashgan davlat tuzilmaguncha vaziyatni tuzatish mumkin emasligini to'la angladi va bu yo'lda keskin kurashga bel bog'ladi. Temurning bu g'oyasini mamlakatni birlashtirishdan manfaatdor bo'lgan barcha sotsial kuchlar, ayniqsa har tomonlama katta nufuzga ega bo'lgan feodal zodagonlar astoydil qo'llab-quvatladilar.

Vujudga kelgan siyosiy vaziyatdan ustomonlik bilan foydalanib, dadil kurash olib borgan Temur XIV asrning 70-yillariga kelib Movorounnahrda mavjud feodal tarqoqlikdayu, mo'g'ullar hokimligiga barham berib, nisbattan markazlashgan, kuchli va mustaqqil feodal davlatga asos soldi. O'rta Osiyo (Movorounnahr) xalqlari hayotida yuz bergan bu tarixiy voqeada, shubhasiz, Amir Temur xizmati beqiyosdir.

Movorounnahrning o'ziga bo'ysundirib, hokimiyatni mustaqqil o'z qo'liga olgan Temurning bundan keyin uyushtirgan harbiy yurishlari talonchilik xarakteridagi urushlar bilan qo'shib olib borildi. Mana xildagi yurishlarning dastlabki Temurning Xorazmga qilgan (1372-yil) yurishi edi. Hozirgi zamon ilmiy

¹⁶ Ibn Arabshoh, Ajoib al-Maqdur. (So'z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tayyorlagan). Toshkent "Mehnat", 1992-y, 35-bet

adabiyotida qayd qilinganidek, Ibn Arabshoh ham Temur Xorazmga to'rt marta yurish qilgandan keyin uni egallab, poytaxti Urganchni xarob etgani haqida yozadi.¹⁷

1385-yildan boshlab Temur avval o'zi yordamida Oq O'rdada hokim bo'lib, so'ngroq esa Oltin O'rdani ham o'izga qo'shib olib butun Jo'ji Ulusida o'z hukmini o'rnatishga muvaffaq bo'lgan, To'xtamish (vafoti 1406) bilan uzoq muddat urush olib bordi. Ibn Arabshoh ham Temur bilan To'xtamishni o'rtasida 1395-yilda sodir bo'lgan hal qiluvchi jangni batafsil bayon etib, To'xtamishni yengilib qochishi va Temur qo'shinlari tomonidan Oltin O'rdani poytaxti Saroy hamda Astraxan, Saroychiq, Azov kabi shaharlar vayron etilganini zikr qildi. Temur bilan To'xtamishni to'qnashuvi bayoni munosabati bilan muallif Dashti Qipchoq ahlining urf-odatlari, xislatu fazilatlari, shuningdek, Saroy shahrining tarixiga doir ko'pgina ma'lumotlar keltirganki, shubhasiz bu faktlar Oltin O'rdsa tarixi bilan shug'ulanuvchi tadqiqotchilar tarixchi etnograflar uchun ma'lum qimmatga egadir.

Temurning Xorazm va Oltin O'rdaga qarshi kurashub, ularni yengishi O'rta osiyoni kuchli bir davlatga birlashtirish bilan bog'liq bo'lsa uning Eron (XIV asrning 80-yillari), Ozarbayjon (1385-1386), Iroq (1393-1400), Hindiston (1398-1399), Suriya (1400-1401) va Turkiyaga (1401-1402) qilgan yurishlari esa to'g'ridan-to'g'ri istilochilik va bosqinchilik maqsadidagi yurishlar edi.

Ibn Arabshoh yuqorida zikr qilgan yurishlarning har qaysisiga alohida alohida to'xtalib o'tsada, lekin Temurning Shom, Iroq va Turkiyaga qilgan yurishlarini mufassal bayon qiladi. Bu haqidagi ma'lumotlar to'la to'kis va barcha o'rinlarda aniq tarixlari bilan keltirilib, muallif ulardan yaxshi xabardor bo'lganligi sezilib turadi.

¹⁷ Ibn Arabshoh, Ajoib al-Maqdur (So'z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tayyorlagan). Toshkent "Mehnat", 1992-y, 37-bet

“Ajoib al-Maqdur” da keltilgan ma’lumotlarga qaraganda, katta o’lja olishga umid bog’lagan Temur o’zining so’ngi, Xitoyga qilgan yurishiga zo’r tayyorgarlik ko’rgan. Bu paytda Samarqanda yashagan Ibn Arabshoh bu voqealardan yaxshi xabardor bo’lganligi uchun ham bu haqda keltilgan ma’lumotlari o’zining originalligi, to’laligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, Ibn Arabshoh, Temur o’zi avval Ashporaga jo’natgan amiri Ollohdoddan Xitoy yerlarigacha bo’lgan butun yo’llaru manzillar, suvloqlaru sahrolar va shularga o’xshash bo’lgan ma’lumotlarni mufassal tarzda yurishni so’raganligini zikr qiladi, shubhasiz, bu ma’lumotlar Temurning Xitoyga yurishida istifoda etilishi ko’zda tutilgan. Shuningdek, muallifning Temur vafoti va uning vafotidan keyin darhol sodir bo’lgan voqealarga oid keltirgan ma’lumotlari tarixchilar tomonidan yuqori baholanib, qator ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. 1404-yil noyabr oyining oxirlarida Xitoy tomonga yurish boshlagan Temur qahramon qish va qor bo’roniga qaramasdan 1405-yilning 14-yanvarida O’trorga kelib to’xtadi. Ibn Arabshohning yozishicha sovuq natijasida Temur ibrida kasaliga chalilib, uni dafn etish uchun u tarkibida isitadigan moddar, xushbo’yliklar va rezavorlar bo’lgan araq ichimliklari tayyorlatib, me’yorsiz darajada shundan iste’mol qiladi. Bundan uning ahvoli og’irlashib, tabiblarning davosiga qaramasdan 1405-yilning 18-fevralida vafot etdi. Temur kasali va uning o’limiga ko’p miqdorda iste’mol qilingan aroq sabab bo’lganligi haqida tarixchi Hofizi Abro’ ham yozadi. Garchi rasmiy tarixchilar (xususan, Sharafuddin Ali Yazdiy) bu fakt haqida hech narsa yozmasa-da, bu bir-biriga bog’liq bo’lmagan ikki tarixchining bir xil yozishi yuz bergan voqealarning to’g’ri ekanligiga dalildir. Shuningdek, Temur qabrining ichki jihozi haqida “Ajoib al-maqdur” da keltilgan ma’lumotlar san’atshunoslar, etnograflar uchun katta ahamiyatga egadir. Boshqa manbalarda bu xususda hech narsa yozilmaganligi esa, Ibn Arabshoh keltirgan ma’lumotlarning qimmatini yanada oshiradi.

Ma’lumki, Temur vafotidan keyin uning avlodlari o’rtasida taxt uchun boshlanib ketgan kurashda ko’p amirlar qo’llab-quvvatlagan va poytaxtga yaqinroq

nabi Halil Sulton g'olib chiqib, Samarqand hokimligida qaror topdi. Ibn Arabshoh Halil Sulton hokimiyat tepasida turgan (1405-1409) yillarda Movorounnahrda sodir bo'lgan siyosiy voqealar, shuningdek, mamlakat ichki hayotidagi ahvol va Halil Sultonning o'zi haqida ko'pgina ma'lumotlar keltiradi.

Ibn Arabshoh asarida tarixiy voqealar bayoni 1409-yilda Temurning kenja o'g'li, 1397-yildan beri Xurosonda hokim bo'lib turgan Shohruh kelib Samarqandni egallagani va o'z o'g'li Ulug'bekni Movorounnahrda qaror topdirib, Xurosonga qaytgani hamda deyarli Temur barpo qilgan saltanatga mansub bo'lgan chegaralarning barchasi Shohruhni ostiga o'tganligi zikr qilish bilan tugallanadi.

XIV asrning birinchi yarmidan boshlab Xurosonda sarbadorlar harakatining kengayishi natijasida boshqa o'lkalarda, jumladan, Samarqandda ham bu harakat keng tarqalgan edi. Ibn Arabshoh sarbadorlarni “shuttorlar” ya'ni “buzuqlar”, “talovchilar” deb atab,¹⁸ o'z asarida bayon qilishicha, Samarqand sarbadorlari, turli-tuman toifadagi kishilardan tashkil topgan va ikki guruhga bo'lingan bo'lib, mudom oralarida adovat va muqotala sodir bo'lib turgan. Shunchalik qudratli bo'lishiga qaramasdan Temur ulardan xavotirda bo'lib, bir necha marta (muallif yozishicha, to'qqiz marta) ular bosh ko'tarib o'ziga qarshi xuruj qilgach, Temur firib bilan ularni qatl etib, ziyonu zararlardan amin bo'lgan.

Temur hukmronlik qilgan yillarda Movorounnahrning turli tomonlarida ko'pgina inshootlar barpo etildi. Ibn Arabshoh, Temur Damashqdan fazlu-hunar egalarini, turli-tuman san'at ahllari-to'quvchilar, mol tabiblari, naqqoshlar, yoy yasovchilar, qirg'iydoylar, xullas har qanday hunar ahllarini Samarqandga olib ketganligini xabar qiladi. Bu haqida Sharafuddin Ali Yazdiy ham yozib, tabiblardan Mavlono Jamoluddin va Sulaymon ham olib ketilganligini qayd qilsa, Ibn Arabshoh Jamoluddinni Shomda tabobat rasi edi, deb bu fikrni to'ldiradi. Chet o'lkalardan Samarqandga keltrilgan hunarmand va ustalar hamda mahalliy aholining samarali mehnati va noyob san'ati bilan o'sha davrda bunyod etilgan

¹⁸ Ibn Arabshoh, Ajoib al-Maqdur (So'z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tayyorlagan). Toshkent “Mehnat”, 1992-y, 40-bet

Masjidu Jome', Shohizinda, Go'ri Amir kabi sharq me'morchilik San'atining ajoyib namunalari bo'lgan muhtasham imoratlar, bir tomondan shuhratparst hokimlarning o'z davlati qudratini namoyish qilishga jonu-jahd ko'rsatganliklarini anglatsa, ikkinchidan feodal zulmi sharoitida madaniy boylik yaratib, keyingi avlodlarga meros qoldirgan o'sah xalqlar mushtarak ijodining samarasini ham ifodalaydi. Shuni qayd qilish kerakki, "Ajoib al-maqdur"da o'sha davrda qurilgan xilma-xil qurilish inshootlari haqida yana birtalay ma'lumotlar keltirgan. Jumladn, yuqorida zikr qilingan masjidi jome' haqida Ibn Arabshoh ma'lumot berishicha, ushbu imoratga boshchilik qilish Muhammad Jold degan a'yon zimmasiga yuklatilgan. Lekin Jome' imoratidan norozi bo'lgan Temur Muhammad Joldni qatlga tortib, mol-mulkini musodara qildirgan. Bu jazoning sabablari bir nechta bo'lib, ularning eng asosiysi mazkur jome'ning Katta Malika (Bibixonim) qurdirgan madrasaga nisbattan pastroq qurilganligi edi, deb hikoya qiladi muallif boshqa tarixchi sayyohlarning aynan shu tarzda fikrlarini quvvatlab.

XIV-XV asrlarda bog'-rog'lar barpo etish g'oyatda tarqqiy etib, yozma manbalarda o'sha davrda o'ndan ortiq bog'-bo'stonlar bunyod etilganligi zikr qilinadi. Ibn Arabshoh shulardan beshtasini nomini keltirib, ularni o'z xotirasida qolgani bo'yicha aytadiki, ulardan biri Bo'stonu Eram, ikkinchisi Ziynat ut-Dunyo, boshqasi Jannat ul-firdavs, unisi Bo'ston ush-Shimol, bunisi Jannat ul-Ulyo deb atalganligini hikoya qiladi. Shuningdek, Ibn Arabshoh, Temur va uning qo'shini g'oyibligida ushbu soya-salqinlar, bog'u rog'larda shahar ahlidan boyu faqirlar sayr qilib, hordiq chiqarganliklarini yozadi.

"Ajoib al-maqdur"da tarixiy ma'lumotlarga keng o'rin berilga bo'lsa-da, ayrim hollarda jo'g'rofiy xarakterdagi xabarlar ham uchraydi. Jumladan, muallif XIV asrning oxirlarida Samarqand va unga qarashli joylar yeti tumandan, Andijon va uning atroflari to'qqiz tumandan iborat bo'lganligini qayd qilib, "tuman deb o'n ming jangchi chiqadigan (joy) ga aytiladi"¹⁹- deb yozadi. "Ajoib al-maqdur"ning

¹⁹ Ibn Arabshoh, Ajoib al-Maqdur (So'z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tayyorlagan). Toshkent "Mehnat", 1992-y, 47-bet

yana bir qimmatli tomoni shundaki, asar faqat O'rta Osiyo tarixiga oid bo'lib qolmasdan, balki XIV-XV asrlar Oltin O'rda, Ozarbayjon, Eron, Hindiston, Iroq, Suriya, Turkiya kabi mamlakatlar tarixiga oid muhim manba hisoblanadi.

“Ajoib al-maqdur” asari Ibn Arabshoh Samarqanddan jo'nab ketgandan keyin taxminan o'ttiz yilcha vaqt o'tgach, talay o'rinlarda muallifning xotirasida qolgan ma'lumotlarga asoslanib yozilganligidan ham, mualliflar Movorounnahr hayoti bilan yaqindan tanish bo'lgan ba'zi forscha manbalarda kuzatilganidek mamlakat hayotining barcha tomonlarini to'liq qamray olmagan. Muallif bir talay hollarda ayniqsa asarning boshlang'ich qismida ba'zi voqealarni “aytilishicha”, “hikoya qilinishicha” sozlar bilan boshlab, o'zi keltirayotgan xabarning aniqligiga ishonchi komil bo'lmay, o'zgalar hikoyasiga yoki xotirasiga tayanganiga ishora qilgan holda bayon etadi. Bu holni muallifning o'zi ham e'tirof etib, kitob xotimasida “Temurning xilma-xil va naqadar ko'p ishlaridan parishon xotiramdayu, uzoq fikrimda, qolganlarini jamlab bir asar bayon etdim”, deb yozadi. Mana shu boisdan ham asarda ayrim xatolar, chalkashliklar uchraydi. Jumladan, Temur bilan Oltin O'rda xoni To'xtamish o'rtasida 1381-yilning yozida, Uralning G'arbida, Qunduzcha degan mavzega yuz bergan birinchi jangni Ibn Arabshoh (taxminan 1370-1371-yillarda) Xo'jand (Sirdaryo) yaqinida, Turkiston atroflarida bo'ldi²⁰ deb chalkashlikka yo'l qo'yib bu jangda Temur Sayyid Barakaning yordamida g'alaba qozongani rivoyatni keltiradi.

Asarning saj' uslubiga rioya qilinib yozilishi tufayli ham ba'zi bir tarixiy va jug'rofiy xarakterdagi xatolarga yo'l qo'yilganligini yuqorida qayd qilinganidek, qofiya uslubi sar xarakteriga ham bir qadar ta'sir ko'rsatgan. Jumladan muallif o'z asarida Temurni ba'zan haqoratimiz so'zlar bilan atashi ham garchi qisman muallifning Temurga nisbatan munosabatini bildirsa-da, aksar holda mazmundan ko'ra saj' uslubini saqlanishga ko'proq e'tibor berilganligidan sodir bo'lgan.

²⁰ Ibn Arabshoh, Ajoib al-Maqdur (So'z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tayyorlagan). Toshkent “Mehnat”, 1992-y, 50-bet

Zaruratdan keltirilgan mazkur so'zlar o'pincha qofiya haddan tashqari amal qilingan sarlavhalarda uchrashi keltirilgan fikrlarni tasdiqlaydi.

XIV asrning oxiri XV asrning boshida Movorounnahda nisbiy siyosiy osoyishtalik o'rnatilganligi mamlakat iqtisodiy hayoti hamda ishlab chiqarish kuchlarning bir qadar rivojlanishida ijobiy omil bo'ldi. Natijada, savdo-sotiq tarqqiy qilib, qishloq xo'jaligini rivojlantirish yo'lida qator tadbirlar amalgam oshirildi, sug'orish inshootlari tiklanib, ariq-zovurlar va kanallar o'tkazildi. Shu nuqtai nazardan qaraganimizda Ibn Arabshoh mamlakatning iqtisodiy hayoti, qishloq xo'jaligini tiklash va rivojlantirish yo'lida qilingan ishlar, dehqonchilik, savdo-sotiq va hunarmandchilikning qay darajada o'sganligi kabi qator sotsial-iqtisodiy masalalar haqida deyarli hech narsa yozmagan. Shuningdek, mamlakat iqtisodida muayyan rol o'ynagan hunarmandlar, kosiblar, dehqonlar, oddiy mehnatkash ommning ahvoli, o'sha paytda mavjud feodal ekspluatatsiyaning shakllari, soliq va to'lovlarning miqdori va xillari kabi muhim masalalar ham muallif nazaridan chetda qolgan.

Qayd qilingan ayrim kamchiliklarga qaramasdan "Ajoib al-maqdur" XIV asr oxiri XV asr boshlari O'rta Sharq mamlakatlari xususan O'rta Osiyo tarixining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tomonlarini aks ettiruvchi muhim tarixiy asar ekanligi yuqorida keltirilgan mulohazalarimizdan ham ravshandir. XVII asrdan boshlab Ibn Arabshoh asarining turli tillarga (lotin, fransuz, turk, ingliz) tarjima qilinishi, sharqu g'arbda qayta-qayta nashr etilishi, dunyoning turli burchaklarida saqlanayotgan talaygina qo'lyozmalar mavjudligi, bular hammasi tasodifiy hol bo'lmay, balki asarning muhim tarixiy manba sifatida jahon miqyosida shuhrat taratganini ko'rsatadi. Darhaqiqat, Temur va uning avlodlari hukm yuritgan XIV asr oxiri va XV asr boshlaridagi Movorounnahr tarixini yoritishni "Ajoib al-maqdur"siz tasavvur qilish qiyin. Mana shu davrga oid boshqa tarixchilar tomonidan yaratilgan asarlar tanqidiy nuqtai nazardan yozilgan Ibn Arabshoh asari bilan birgalikda o'rganilgan taqdirdagina mazkur davr hayotini to'la va har tomonlama chuqur yoritish mumkin. Zotan, Ibn Arabshoh asarida

ba'zi forscha manbalarda kuzatiladigan hokimlarni maqtab, ko'klarga ko'tarishdan asar ham bo'lmay, voqealar aksar o'rinlarda muallifning shaxsiy mushohadalari yoki o'sha voqealar ishtirokchilari va jonli guvohlarining so'zlariga asoslanib keltirilgan. O'rta Osiyo xalqlari hayotining qariyb yarim asrlik tarixidan so'zlovchi bu qimmatbaho asar maxsus o'rganilib, hanuzgacha Vatanimiz xalqlari tillaridan birortasiga tarjima qilinmagan edi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan qayta qurish sharofati tufayli o'tmish avlodlaridan meros qolgan yozma manbalar, madaniyat yodgorliklarini har tomonlama chuqur va tanqidiy o'rganishga alohida e'tibor natijasida 1992-yil Toshkentda Ibn Arabshohning "Ajoib al-maqdur" asari filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tomonidan tarjima qilindindi.

2 Bob. “Ajoyib al maqdur – fi ta’rix Taymur” asarida Amir Temurning ijtimoiy – siyosiy va harbiy faoliyatining aks ettirilishi

2.1 Asarda Amir Temurning tarix sahnasiga chiqishi faoliyati

Temur ibn Tarag’ay ibn Abag’ay bo’lib, uning tug’ilgan joyi Xo’ja Ilg’or deb ataladign kishilardir. Uning tug’ilgan yili turli manbalarda turlicha berilgan. Masalan, Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida quyidagicha keltiriladi: “Sha’bon oyining yigirma beshida, 8.04.1336-yil. Kaish dilkash viloyatida tug’iladi”²¹. deb fikrini davom ettiradi. M. Ivaninning “Ikki buyuk sarkarda Chingizxon va Amir Temur” asrida quyidagi fikrlar keltirgaqn:

“Amir Temur (Sohibqiron Amir Temur Ko’ragon bin Tarag’ay Muhammad Bahodur) 1333-yil 7-may kuni duyoga kelduning otasi Buxoroning janubi-g’arbidagi Kesh yoki Qarshi shahri tevaragidagi yerlarning ma’lum qismiga egalik qilari edi”.²² Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, Amir Temur tavalludi sanasi aniq emas. Boshqa ba’zi manbalarda u 1336-yil 9-aprelda tug’ilgan degan fikr ham mavjud.

Ibn Arabshohning “Ajoib al-maqdur” asarida hikoya qilinishicha, Temur tug’ilgan kechasi havoda qandaydir uchib yurgan temir qalpoqchaga o’xshash bir narsa paydo bo’lgan. Keyin u keng bo’shliqqa tarqalib, yer yuziga yoyilib ketgan emish. Yana aytishlaricha, temur tug’ilganda uning qo’llari yangi qonga bulangan ekan. Bu ahvol tasviri folbinlar va azaymxonlardan so’ralganda, ulardan ba’zilari: “u shurta bo’ladi”, boshqalari “u o’g’ri va yo’lto’sar bo’lib ulg’ayadi desa, yana bir guruhi “yo’q u qassob va qonxo’r bo’ladi” debti, yana bir xillari esa “yo’q undan jallod va kallakesar chiqadi”, debdilar.

Yana aytishlaricha, Temur va uning otasi hayqiroq cho’ponlardan bo’lib, na aqliyu na dini bo’lmagan avom kishilar toifasidan ekanlar. Yana aytadilarki, u

²¹ Sharfuddin Ali Yazdiy, “Zafarnoma”, Toshkent, “Sharq”, 1997-yil, 12-bet.

²² M. Ivanin, “Ikki buyuk sarkarda. Chingizxon va Amir Temur”, Toshkent, “Fan”, 1994-yil, 114-bet.

mulozim odamlardan, past tabaqa tanballardan bo'lgan. Ularning panohgohi Movorounnahr bo'lib, o'sha atroflar esa qishlov joylari bo'lgan.

Ammo yuqorida berilgan ma'lumotlarning barchasihaqiqatga yaqin deb bo'lmaydi. Buning uchun bir nechta manbalardan foydalanish kerak.

Amir Temurning otasi Amir Tarag'ay barloslar urug'ining harbiy boshliqlari-beklaridan bo'lgan. Uning ajdodlari Chig'atoy va Chingizxonlar saroyi yaqinlaridan edi. Fansuz tarixchisi Rene Grusse o'zining 1941-yili nashr etgan "Dasht saltanati" asarida Amir Temurning barloslar urug'idan kelib chiqqanligi haqida shunday yozgan edi: "Temuriylarning tarixchilari uning shajarasini Chingizxon safdoshlaridan biriga va hatto Chingiziylardan biriga olib borib ulashga harakat qilar. Aslida esa u hech qanday mo'g'ul emasdi, u turkiy edi. U Movorounnahrning barlos urug'idan chiqqan olijanob oilalardan biriga tegishli bo'lib, ular Kesh atrofida o'z mulklariga ega bo'lganlar va unda hokimlik qilganlar.

Boshqa bir fransuz tarixchisi Lui Bazen bu aytilganlarni quyidagicha sharhlaydi: "mo'g'ullarning 1240-yili yozilgan "Maxfiy tarixi" da keltirilgan ma'lumotlarni Amir Temur 1405-yili o'lganidan keyin temuriy tarixchilar keltirgan ma'lumot bilan solishtirish shuni ko'rsatdiki, bular Amir Temurning o'zi ham tasavvur qilmagan Chingiziylarga qonuniy tegishli qilib ko'rsatishga uringanlar. U faqat hayotining oxiriga yaqin Chingiz avlodi Xizr Xojaxonning qiziga uylanish yo'li bilan unga qarindosh bo'ldi va "go'ragon" ya'ni kuyov laqabini oldi". Demak, Temurning barlos urug'idan bo'lishi bilan birga uning mo'g'ullar va Chingizxonga aloqasi yo'q.

Amir Temurning otasi Tarag'ay Chig'atoy ulusidagi e'tiborli kishilardan bo'lganligining yana bir alili shuki, u yilda bir marta Ili daryosi bo'yida xon tomonidan chaqiriladigan qurultoyga taklif qilinardi. Tarag'aybekning nafaqat Movorounnahrdagi yirik amirlaridan yaqin tanishlari bo'lib, keyinchalik Amir Temurbu aloqadan foydalanadi. Shunday qilib, Tarag'aybek Chig'atoy ulusinin ko'zga ko'ringan beklaridan bo'lgan.

Biroq beklardan kelib chiqqanliklariga qaramay, Amir Temur otasining ham, bobosi Amir Bargulning ham harbiy ishga mayli bo'lmagan. Tarag'aybek taqvodor musulmon bo'lib, ko'p vaqtni darveshlar bilan birga o'tkazgan. Sharafuddin Ali Yazdiy bu haqida shunday yozadi: "Tarag'aybek ulamo va sulaho va muttaqilarga mugufiq va mehribon edi. Bularning majlisida borur erdi, lojurma bu jahatdinkim, hazrat Haqning sevir bandalarni sevir erdi".²³

Tarag'ay piri tassavuf shayxi Shamsuddin Kulolni ayniqsa chuqur ehtirom qilardi. Keyinchalik shayx Kulol Amir Temurning ham piri bo'ldi. Tarag'aybek 1360yilda qazo qildi.

Amir Temurning onasi Takina xotun mushtipar ayol edi.

Temur yeti yoshga to'lganda otasi uni marasaga o'qishga beradi. U yerda Temurga so'zlar jadvalini beradilar va u o'qiy boshlaydi. Bundan ko'rinadiki, Amir Temur o'z uyiga, o'qishni o'rganib olgachmadrasaga qatnagan.

Sharafuddin Ali Yazdiy yozishicha: "Amir Temur tezda o'q o'tmoq, o'tlanib chopoqni sevir qoldi va urush o'yinlariga mayl ko'rsatdi. U ovni shu qadar sevir qoladiki, hatto kechayu kunduzlarni ovga o'tkazish mumkin edi.

Shubhasiz, Amir Temur bu o'spirinlik va yoshlik yillaridagi harbiy-sport o'yini va mashg'ulotlari bilan otasi Tarag'aybekka xizmat qilgan maxsus murabiylar yordamida shug'ullangan. O'rta asrlardaOsiyoning musulmon mamlakatlarida podsho va amirlarsaroyida otabek (yoki otaliq) mansabi bo'lib, mansab egasining vazifasi podsho va amir o'g'lini ba'zi ilmlarga o'rgatish bilan bir qatorda, uning harbiy va jismoniy tarbiyasi bilan yaxshi shug'ullanib, badani va ruhini chiniqtirishdan iborat bo'lgan.

Amir Temurning ruhiy ma'naviy murabbiylari, pirlarining nomlari tarixda ma'lum. Ularning birinchisi yuqorida eslatilgan shays Shamsuddin Kulol bo'lib Amir Temur birinchi marta uning huzuriga kelgani haqida ma'lumot saqlangan. O'spirin Temur juldur chaponda shayx huzuriga keladi. Bu vaqt shayx o'z

²³ Sharfuddin Ali Yazdiy, "Zafarnoma", Toshkent, "Sharq", 1997-yil, 22-bet

atrofidaga darveshlar bilan zikr tushayotgan edi. Temur zikr tushayotganini sabr bilan kutdi. Nihoyat, zikr tugab, shayx uning oldiga kelganida, Temur tiz cho'kib, peshonasini uning oyog'iga qo'yadi va qo'lini o'padi.²⁴ Shunda shayx darveshlar bilan birga Amir Temur haqqiga duo qiladi. Keyinchalik Amir Temur bu duoni o'z muvaffaqiyatlarining sababchisi deb bilgan.

Bizningcha, Temur 14-20 yoshlarida otasining maslagidan bogan va shayx Kulolga yaqin bo'lib, sodda hayot kechirgan ko'rinadi. Yuqorida Yazdiydan Tarag'aybek haqida aytilganlar shu fikrga olib keladi va Ibn Arabshoh keltirgan xabar ("juldir chopon") buni tasdiqlaydi. Bu holda Amir Temurning bu xabarlarni rasmiy solnomalariga kiritmagani tushunarlidir: balki u sulton bo'lganidan so'ng o'spirinligidagi o'sha ahvolidan uyalgandir

O'rta asr mualliflaridan faqat Ibn Arabshoh Temur yoshlik yillarida Amir Qazag'onning huzuriga kelgani va uning nabirasiga uylangani haqida xabar keltiradi. Birinchi rivoyatga ko'ra Temurni Qazag'onbekning huzuriga kelgani, uning nabirasi Amir Husaynning otboqari olib kelgan, ikkinchi rivoyatga ko'ra, otasi Tarag'aybek keltirgan.

Bu voqea 1355-yil bahori va yozi oralg'ida sodir bo'lgani ehtimol, chunki o'sha yil yozida Amir Qazag'on Temurni o'zining nabirasi O'ljay Turkonga oqaga, ya'ni bundan bir necha yil avval o'lgan katta o'g'li Amir Musalloning qiziga - Amir Husayning singlisiga uylantirib qo'yadi. Balki hodisa mazkur ikki rivoyatning umumiy o'rtachasidek bo'lgandir, ya'ni Temur otboqar orqali Amir Husayn va uning singlisi bilan tanishgan va ular Temurni Amir Qazag'onga otasi olib borishini maslahat bergandirlar.

Xullas voqea qay yo'sinda bo'lganligidan qat'iy nazar, Amir Qazag'on Temurning aqlu zakovati, pahlavon salovati, shijoat va jasoratiga qoyil qolib, o'sha 1355-yil yozida nabirasi O'ljay Turkon oqani unga nikohlab beradi. Biroq bungacha Temurnig xotini bor edi: o'sha yil bahorida otasi uni Jaku Barlosning

²⁴ Ibn Arabshoh, Ajoib al-Maqdur (So'z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tayyorlagan). Toshkent "Mehnat", 1992-y, 67-bet

qiziga uylantirgan edi. Keyingi yili yigirma yoshli Temur ikki o'g'l ko'radi – O'ljay Turkon oqa 1356yil yozida Jahongir Mirzoni tug'adi, kuzida Jaku Barlosni qizi Mirzo Umarshayxni tug'adi.

Amir Temurning fe'li-atvori manbalarga ko'ra, bosiq bo'lgan, jizakilik va jo'rtakilikunga xos bo'lmagan. Uning fe'li-atvoridagi xuddi ana shu xususiyatlari maslakdoshlarini o'ziga jalb qilardi. Uning ichkilikka mayli yo'qligi bilan fikr-mulohazalari teran va idrokli edi. Ko'pincha u og'ir vaziyatlarda to'g'ri yechimni osonlik bilan topardi. Shuning uchun Amir Temurning bolalikdagi do'stlari va maktabdosh o'rtoqlari atrofida to'planishib, birgalikda mashq va musobaqalarda ishtirok etar, o'z badanlarini va ruhlarini chiniqtirishar, asta-sekin navkar bo'lishi, harbiy guruhga shakllana borardilar. Amir Temyrning bolalik yillaridagi do'stlari orasida Abbos Bahodur, Jahonshohbek, Qimori Inoq, Sulaymonshohbek, Idiku Temur, Sayfuddinbek, Hindushoh Qarqara va boshqalar bor edi. Keyinchalik ular Amir Temurning lashkarboshlari va safdoshlari bo'ldilar.

Amir Temurning yoshlik paytidagi og'ir sinovlar XIV asr 50-yillarning oxirgi choragida Movorounnahr bosh amiri va xotinining bobosi Amir Qazag'onning o'limidan keyin boshlandi. Bu paytga kelib Movorounnahrda tarqoqlik, amirlarning o'zaro kurashi yanada kuchayadi.

1360-yil yanvarida, hali yigirma to'rt yoshga to'lmagan Amir Temur faqat bir o'zi xon bilan muzokaraga borgani diqqatga sazovordir. Bundan ko'rinadiki, Amir Temur shu yoshida Movorounnahrning ko'zga ko'ringan harbiy va siyosiy arbobi bo'lib yetishdi. Amir Temur xon tomonidan Keshga yuborilgan beklar bilan kengashib, xonga xizmat qilishga tayyorligini bildirdi. Shunda xon o'z yorlig'i bilan Amir Temurni Kesh viloyatining dorug'asi etib tayinlaydi. Shundan so'ng Amir Temur o'z viloyatiga qaytib keladi, Tug'luq Temur esa Mo'g'ulistonga qaytib ketadi.

Shuni aytish kerakki, Tug'luq Temurxonning bu birinchi kelishida Amir Temurning xon huzuriga borishi – kuchlar teng bo'lmay, sharoit taqazo qilganda noilojlikdan qo'yilgan siyosiy hamda strategik qadam edi. Lekin Amir Temur

qo'ygan bu qadami bilan mamlakatida Mo'g'ullar talonining oldini oldi va raiyatni bu falokatdan qutqardi.

El yurtini boshqarishida harbiy kuchning ahamiyatini yaxshi tushungan Amir Temur qo'shinining harbiy takomiliga katta e'tibor berdi. U "amir" va "amirul-umaro", ya'ni "bosh amir" kabi yuqori darajali harbiy unvonlar joriy qildi. Bunday oliy darajali unvonlarga ega bo'lgan iqtidorli sarkardalarga u hattoki viloyat hokimligi yoki noibligini in'om etgan. Amir Temur armiyasini harbiy jihatdan isloh qilar ekan, ayniqsa qo'shin boshliqlarini tanlash va ularni tarbiyalash, lashkariy qismlar va ularning joylashish tartibi, navkar va sarbozlarning qurollanishi hamda ichki intizom masalalari uning diqqat markazida turdi.

Shu bois Amir Temur manbalarda mashhur sarkarda va yirik lashkarboshi sifatida tilga olinadi. Uning harbiy iste'dodi, sarkardalik mahorati qo'shinlar tuzilishida, Oltin O'rda xoni To'xtamish, dehli sultoni Mahmud va Turkiya sultoni Boyazidlar bilan olib borgan janglarida va shiddatli muhorabalar maydonida qo'llangan strategiya va jang qilish uslublarida namoyon bo'lgan.

Amir Temur qo'shini o'ntalik askariy birlikmalar asosida tuzilgan navkarlardan iborat edi. Lashkar "tuman" – besh yuzlik va "ayl" – o'nlik birikmalariga bo'lingan. Tumanlarda askarlar soni o'n ming qoshinda yuz ming nafardan otliq bo'lgan.²⁵ Amir Temur o'n minglik lashkarni boshqarish uchun "tuman og'asi", minglik bo'linmalar uchun "mirihazora", yuzliklar uchun "qo'shinboshi" va o'nliklar uchun "aylboshi" kabi harbiy mansablarni ta'sis etgan, ularning haq-huquqlarini, oylik maoshini belgilab bergan. Masalan, oddiy sipohiy mingan otning bahosi barobarida, bahodirlar 2-4 ot barobarida, aylboshi qaramog'idagi navkarga nisbattan o'n barobar ko'p, yuzboshi o'nboshidan ikki barobar ziyod maosh olgan mingboshilar maoshi qo'shinboshinikidan uch barobar oetiq edi.

²⁵ Ibn Arabshoh, Ajoib al-Maqdur (So'z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tayyorlagan). Toshkent "Mehnat", 1992-y, 72-bet

Amir Temur o'zining faoliyatida barcha sohalarga e'tibor bergan, ayniqsa hunarmandchilikka.

Markaziy Osiyo hunarmandchiligida gilamchilik alohida o'rin tutgan. Anvoya gilamlar Amir Temur saroylarini bezar edi. Hukmron sulolaning oilaviy tantanalari, hukmdorning harbiy yurishlardan qaytishi va elchilarning kelishi munosabati bilan poytaxt shaharlarning asosiy ko'chalari va uylarning devorlari gilamlar bilan bezatilardi.

Saroy devorlari va chodirlari ham bezak pardalar, turli rasimli matolar, ipak va parcha gazmollar bilan bezatilgan kocha va maydonlar ta'rifini Sharafuddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Rui Gonsalesde Klavixo va boshqalar o'z asarlarida bayon etganlar.

XIII-XIV asrlarda davlatga qarashli yirik hunarmandchilik ustaxonalarda qo'llar mehnatidan foydalanildi.

Turli manbalardan olingan ma'lumotlarni tahlil etgan sharqshunos olim I.P.Petrushevskiy: "X-XV asrlarda feodal ishlab chiqarish usuli hukmron bo'lgan bir davrda quldorlik qoldig'i ham, muayyan rol o'ynagan: quldorlar mehnatkash qullardan qishloqdagi xo'jaligida keng qo'llanilgan" ligini ta'kidlaydi.

Rui Gonsalesde Klavixoning Samarqand qal'asida joylashgan qorxona haqidagi ma'lumoti diqqatga sazovor. Uning yozishicha, Amir Temur bu yerga minga yaqin asir hunarmandlarni saqlagan, ular yil bo'yi sovut, dubulg'a, kamon va o'q yasashgan. Amir Temur shaharda yeti yillik yurishga ketgan vaqtdan to qaytib kelguniga qadar asirlar yasagan qurol-yarog'larni uning oldiga qo'yishlarini buyurgan.

Shubhasiz, hunarmandchilikning yuksalishi ko'p jihatdan ichki va tashqi savdoning umumiy holatiga bog'liq edi. Shuning uchun Temur va uning vorislari mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutgan tijoratchilikning kengayishiga katta ahamiyat berdilar. Bu davrda davlat hududlari va viloyatlari bo'ylab kesib o'tgan barcha karvon yo'llarida qator katta-kichik rabotlar va yamlar

barpo etilar, karvonsaroy va xonaqohlar qurilardi. Natijada karvon qatnovi jonlanib, ichki savdo gavjumlashdi.

Samarqandda Amir Temur buyrug'i bilan barpo etilgan bog'larga olib boruvchi yo'llar yoqasida bozorhalar joylashgan bo'lib, ularda dunyoning hech yerida uchramaydigan eng yaxshi qovun-tarvuzlar, meva va sabzavotlar, boshqa turli mollar bilan savdo qilingan.

O'zaro urushlarning susayishi va markaziy hokimiyatning kuchayishi natijasida mamlakatning turli viloyatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar rivojlanib bordi. Movorounnahrning qishloq va shaharlaridan Samarqand bozoriga keltiriladigan va muayyan talablarga javob beradigan mahsulotlarning bir qismi chet ellik savdogarlarga sotish va boshqa shaharlarga jo'natish uchun mo'ljallab olib kelinar edi.

Keng tarmoqli Buyuk Ipak yo'li Movorounnahr shaharlarini Hindiston, Eron, Volga bo'yi, hozirgi Afg'oniston, Xitoy, Turkiya shaharlari bilan bog'lar edi.

Amir Temur davlatning rivojida savdoning ahamiyatini juda yaxshi tushunar edi. Shu nuqtai nazardan u siyosiy va iqtisodiy masalarni ham hal etishga harakat qilar edi.

Kichik Osiyoda bo'lgan vaqtida Amir Temur Fransya qiroli Karl VI va ingliz qiroli GenrixVI bilan diplomatik yozishmalarda g'arb mamlakatlari bilan muntazam savdo aloqalar o'rnatish istagini bildirdi. Savdogarlarning diniy mansubligidan qat'iy nazar, ularni savdo erkinligi bilan ta'minlash ikki tomondan qo'yilgan muhim shartlardan biri edi.

Amir Temur o'z harbiy harakatlarini uzoq va yaqin mamlakatlar ila faoliyati ya'ni faol diplomatic munosabatlar bilan birga olib brardi. Umuman u tinch yo'l bilan qilingan barcha diplomatic harakatlar hech bir natija bemagan hollarfagina tashqi diplomatik maqsadga erishishning bir vositasi sifatida urushdan foydalanar edi.

Bu borada Amir Temurning Misr mamluklari va bo'lgan diplomatik munosabatlari juda ibratlidir.

XIV asr oxirida vujudga kelgan muayyan xalqaro vaziyat tufayli Osiyo, qisman Afrika va Yevropa hududida Usmonli Turkiya, Amir Temur davlati, Misr mamluklar saltanati va Oltin O'rda eng qudratli davlatlar sifatida siyosiy maydonga chiqdi.

1382-yili Misrda hokimiyat tepasiga kelgan Sulton az-Zohir Barquq boshliq cherkas mamluklari davlati tarkibiga kirga Suriya, ularga tobe bo'lgan Iroq va muqaddas sajdagohlar makoni hijoz bilan birgalikda qudratli kuchga aylangan bo'lib, Sharqdagi qo'shni mamlakatlar uchun himoya vazifasini ham o'tardi. Shu sabab qator mamlakatlar va amirliklar mamluklar davlatini e'tirof etib, uning himoyasiga umid bog'lagan holda mamluklar davlati bilan sulh tuzishga shoshildi.²⁶

Markaziy Osiyoda Amir Temur markazlashgan yirik davlat tuzib, uning g'arbiy sarhadlarida nufuzi osha borgach, ular o'rtasidagi bu harakat ayniqsa kuchaya bordi. Amir Temur davlatining qudrati va nufuzi orta borishi bilan Misr mamluklar saltanatiga ko'p qo'shnilar murojat qilib yordam so'ray boshladilar. Masalan, Sinjar, Qaysariya va Takriytning hokimlari 1383-yili Misr sultoniga maktub yo'llab, o'zlarini uning tobelar hisoblab, xutbani uning nomi bilan o'qiganlarini bildirganlarida Sulton Barquq darhol ular iltimosini bajo keltirib, ularni o'z noiblari etib tayinladi.

O'z navbatida, aytish joizki, bu voqealar Amir Temurning ba'zi arab mamlakatlari hududlarida paydo bo'lishi bilan bir vaqtga to'g'ri keldi. Jumladan, 1386-yili Amir Temur qo'shinlari Tabriz shahrini qamal qildi va undan hokim Qora Yusuf turkmanni haydab chiqarib, shaharni egallaganlarida Iroq hokimi Sulton Ahmad ibn Uvays Jaloyir bunga ko'p ham e'tibor bermay, mamlakat ichkarisiga – Bag'dodga chekinish bilan chegaralandi. Ayni vaqtda turkman qora

²⁶ Ibn Arabshoh, Ajoib al-Maqdur (So'z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tayyorlagan). Toshkent "Mehnat", 1992-y, 84-bet

quyunlilar qabilasining boshlig'i Qora Yusuf va bir qator arab yo'lboshchilari bilan Amir Temurga qarshi bitim tuzdi.

1387-yilda Qohiraga kelgan bir xabardan Amir Temur Amut hokimi Qora Yusufni tor-mor qilib, shaharni egallagani va Qora Yusuf qochib ketgani ma'lum bo'ldi.

Bunday xatarli voqealardan keyin Sulton Barquq o'z qozilari va amirlarini yig'ib mashvarat qildi.

Qo'shinning asosiy qismi yo'lga tushishidan oldin shu tariqa ilg'or guruh jo'natish mamluklarning odati edi. O'sha yili Amir Temur qo'shinlari mamluklarga qo'shni yerliklarga ketma-ket qo'qqisdan hujumlar uyushtirdi. Ularning mamluklar davlati chegaralariga yaqinlashib qolgani haqida ovozarlar taqaldi.²⁷

2.2Sohibqironning harbiy mahorati va yurishlari tarixi bayoni

Ibn Arabshoh o'zining "Ajoyib al-maqdur" asarida Amir temurning barcha harbiy yurishlari haqida batafsil ma'lumotlar bergan. Ular quyidagilar:

1. Movaraunnahr yerlarini bosib olishi.
2. Xorazmni bosib olish uchun qilgan besh marotaba yurishi.
3. Sajiston viloyatlarini bosib olishi.
4. Sabzavor yerlariga yurishi.²⁸
5. Temurning Ajam Iroqiga yurishi.
6. Temurning mo'g'ul²⁹ va Jato tarafini zabt etishi.
7. Temurning Ozarbayjon va Arab Iroqi yerlarini xarob etishi.

²⁷ Ibn Arabshoh, Ajoib al-Maqdur (So'z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tayyorlagan). Toshkent "Mehnat", 1992-y, 99-bet

²⁸ Ibn arabshohning "Ajoyib al-maqdur" asari. Sabzavor – Afg'onistonning g'arbida Hirotidan janubda joylashgan mashhur shahar. Hozirgi Isfizor deb ataladi.

²⁹ Shu asardan. Mo'g'ul- Mo'g'iliston XIII-XVII asrlarda Qozog'istondan qashqargacha yoyilgan yerlar. Ilm, Yettisuv va Sharqiy Turkiston viloyatlari. Hozirgi Qirg'iziston shimoliy qismi Mo'g'uliston tushunchasiga kirgan.

8. Dashti qipchoqqa tomon yurishi.
9. To'xtamishxonga qarshi yurishi.
10. Temurning Hind yerlarini o'ziniki qilishi.
11. Temurning Sivos va unga yondosh diyorlarga o'tlanishi.
12. Rumga qaratilgan harakat.
13. Temurning Xitoyga azm etishi.
14. Xalabga kelganida Shom askarlari ustiga qilich va qalqonlardan

Temur chaqnatgan yashin.

Ammo Temurning yuqorida aytib o'tilgan yurishlari haqida bitta bitiruv malakaviy ishida bular to'g'risida batafsil malumot berish ancha mushkul. Shuning uchun men Amir Temurning uchta katta yurishlari ya'ni Movaraunnahrni bosib olishi, To'xtamishxon va sulton Boyazid o'rtasidagi jang haqida Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur" asari asosida yoritishga harakat qilaman.

XIV asrning 60-yillarida Movaraunnahrda siyosiy va iqtisodiy vaziyat nihoyatda og'irlashib ketadi. Feodal tarqoqlikning kuchayishi, ichki feodal urushlarning uzluksiz davom etishi va tashqi dushman hujumlarining avj olishidan dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari tanazzulga uchrab aholi og'ir tanglikni boshidan kechirmoqda edi. Bundan savdogar, hunarmandlar va dehqonlar g'oyatda norozi edilar. Aholining bunday tabaqalari orasida mavjud og'ir ahvoldan qutilish, mamlakatni birlashtirish va kuchli bir davlat tashlik etish harakati kuchayadi.

Husayindan ko'ra Temur o'z zamonining bunday talabini yaxshiroq tushunar edi. Shuning uchun ham u o'z faoliyatining dastlabki bosqichida barcha harakatni Movaraunnahrda markazlashgan mustaqil davlat tuzishga qaratadi. Bunday maqsadni amalga oshirishda u ruhoniylar bilan bir qatorda shaharning savdogar va hunarmand tabaqalariga suyanadi. Bu boradagi amaliy ishlarni Balx shahriga joylashib olgan raqibi Husaynga qarshi yurishdan boshlaydi. 1370-yil mart oyida Temurn yaxshi qurollangan qo'shini bilan Keshdan chiqib Balxni qamal qiladi va katta talofotlar berib, shaharni egallaydi. Movaraunnahrning

hukumdori Amir Husayin o'ldiriladi. Bu voqealardan so'ng mamlakatda Temurning siyosiy mavqei kuchayib ketadi. Chunki endi Movaraunnahrda uning uchun kuchli raqib qolmagan edi. O'sha yili Balxda qo'shin boshliqlarining yig'ilgan qurultoyida Temurning hukumronligi rasman qaror topadi. Temurning piri Saidbaraka duoyi fотиha qilgach, u Movaraunnahrning amiri deb e'lon qilinadi. Movaraunnahrning yagona hukumdori bo'lib olgach, Temur o'z davlatini siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlashga kirishadi. Avvalombor bu davrda Temurga mustahkam poytaxt - bebosh mahalliy hukumdorlarning hujumlariga qarshi tura oladigan bir qarorgoh zarur edi. Shu maqsadda u 1370 – yilda Samarqandga keladi. Bu yerda u shahar devorlari, qal'alar va saroylar bino qilishga kirishadi. Bu imoratlar Afrosiyob mo'g'ullar tomonidan vayron etilgandan keyin 150 yil o'tgach, birinchi marta bunyod qilingan inshootlar edi. So'ngra u holdan toygan mamlakatga qonun va tartib ishlarini joriy etadi. To'g'ri, deyarli bir asrlik boshboshdoqlik hukm surgan mamlakatda qonunlar joriy etib, tartib o'rnatish oson emas edi. Temur dastlab o'ziga mustahkam tayanch barpo etish maqsadida barlos qabilasidan maxsus gvardiya tashkil qiladi. Chunki bunday ishonchli gvardiya ayniqsa, uning siyosiy kurashlari uchun zarur edi. U o'z gvardiyasiga va barlos gvardiyasiga katta imtiyozlar beradi. Ayni vaqtda Temur o'z davlati chegaralarini mumkin qadar kengaytirishga kirishadi. Avval u Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlarni, shuningdek Farg'ona va Shom viloyatlarini o'z tasarrufiga oladi. Ammo Mo'g'iliston tomonidan bo'ladigan xavf hali tamoman yo'qolmagan edi. Temur davlati uchun ayniqsa, Jo'ji ulusida qad ko'targan Oltin O'rda nihoyatda xavfli edi. Temur saltanati bilan Oltin O'rda oalig'ida bu davrga kelib mustaqil bo'lib olgan Xorazm yerlarida qo'ng'iro't so'filarining davlati qaror topdi. Qadimdan iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan Movaraunnahr bilan mushtarak bo'lgan Xorazm mo'g'ullar davrida ikki qismga bo'linib, markazi Urganch shahri bo'lgan. Shimoliy Xorazm Oltin O'rdaga, markazi Kat qal'asi bo'lgan Janubiy Xorazm Chig'atoy ulusiga qaragan.

XIV asrning 60-yillari oxirida Oltin O'rdada yuz bergan g'arayonlar vaqtida Qo'ngirot so'filari Shimoliy Xorazimda yangi sulolaning mustaqil hukumdorligini tiklab oladilar. So'ngra Kat va Xiva shaharlarini bosib olib, shimoliy Xorazm bilan Janubiy Xorazm yerlarini birlashtiradilar. Ayni paytda Xorazm iqtisodiy va siyosiy jihatdan Oltin O'rdaga bog'liq edi. Temur esa butun Xorazmni Chig'atoy ulusining ajralmas qismi deb hisoblar edi. Shuning uchun ham u Xorazmni bosib olish siyosatini tutdi. 1372 yilda Temur Xorazmga birinchi bor hujum qildi. Xorazmliklar mag'lubiyatga uchragan bo'lsalar ham, Temurga bo'ysunmadilar. Shu boisda Temur Xorazmga 5 marotaba yurish qilib, nihoyat 1388-yil uni butunlay qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Ibn Arabshoh o'zining "Ajoyib ul-maqdur" asarida Temurning Xorazmga ikkinchi marta qaytishini quyidagicha bayon etadi: "Amir Temur Xorazmga ikkinchi marta yurish qilganda, shaharni qurshab, hisor etib oldi va Xorazmning yo'llarini mustahkamladi. Shunda shahar ayonlaridan biri-savdogar Husayn Suriy – Temurga peshvoz chiqib, undan bu mushkul ishlarni o'zlari ustidan ko'tarishni va buning evaziga talab qilganicha asir va o'lja berishlarini iltimos qildi. Temur undan 200 xachirga yuk bo'ladigan kumush berishni va uni jaranglagan tanga tariqasida o'z xazinasiga yetkazishni talab qildi. Lekin Husayn Suriy Temurga murojaat etib, Temur so'ragan (mol-dunyo) ning to'rtidan biriga uni ko'ndirdi. Husayn Suriy talab qilingan boylikni o'z mol-mulkidan ajratib, o'sha on o'lchab berdi. Shundan so'ng Temur jo'nash hozirligini ko'ra boshladi. Va o'z qo'shini lashkariga xorazmliklarga aziyat yetkazishni man etib, Samarqandga qarab yo'l oldi".³⁰

Temurning oxirgi yurishida Urganch shahri vayron etildi, shahar aholisi esa Samarqandga ko'chirildi.

Shunday qilib Temur Movaraunnahr va Xorazmda feodal tarqoqlik va o'zaro nizolarga chek qo'yib, Sirdaryo bo'ylaridan Orol dengizigacha bo'lgan

³⁰ Ibn Arabshoh, Ajoyib al-Maqdur (So'z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tayyorlagan). Toshkent "Mehnat", 1992-y, 88-bet

yerlarda yashovchi xalqlarni yagona davlat tasarrufiga birlashtirdi. Bu shubhasiz, Movaraunnahr xalqlari taqdirida ijobiy ahamyat kasb etdi. Ammo Temur bu bilan qanoatlanmadi. U tez orada qo'shni davlat va xalqlar ustiga hujum qilib, jahonga hukmron bo'lishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. 1382-yilda Temur dastavval Zakavkazeni zabt etdi. Temurning O'rta Osiyo chegarasidan Shimolga tomon harbiy yurishi asosan, Jo'ji ulusida qad ko'targan Oltin O'rda davlatiga qaratilgan edi. Qora dengizdan Oltoy tog'larigacha cho'zilgan va Dashti Qipchoq deb nomlangan yerlar Jo'ji ulusi tasarrufida bo'lgan. Bu ulusning Uraldan Qora dengizgacha bo'lgan markaziy va eng katta qismi Oltin O'rda deb nomlanib, bu feodal davlatni XIII asrning 40-yilari boshida Botuxon tashkil qilgan edi. Oltin O'rdaga qarshi zarba berishda Temur uning ichki ziddiyatlaridan ustalik bilan foydalanadi. Temur Oltin O'rdani o'z davlatiga qo'shib olmoqchi emas edi. Faqat u shimoli-g'arbda o'z davlati uchun juda xatarli kuchli bo'lgan xonlikni zaiflashtirish va uning sharqiy qismini o'z ta'siri ostidagi xonlar tasarrufiga topshirish hamda Saroy berka (hozirgi Volgograd) orqali o'tadigan karvon yo'lini ham Movaraunnahr orqali o'tishi uchun kurashadi. Temur Oltin O'rdani faqat Sirdaryoning quyi oqimidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan Xorazm va Movaraunnahrga bevosita bog'liq bo'lgan yerlarnigina bosib olmoqchi edi. Bu davrda Oltin O'rda va Oq O'rdaga ikki mustaqil hokimyat qaror topib, ular o'ratsida kuchli nizolar davom etardi.³¹ Temur O'risxonning Tazyiqidan qochib, o'z huzuriga homiylik istab kelgan Oq O'rda xonzodalaridan To'xtamishga bir necha bor harbiy yordam beradi. 1379-yilda To'xtamish Temurning homiyligida Oq O'rdaning taxtini egallashga muvaffaq bo'ladi. Ammo To'xtamish Oq O'radani, keyinroq Oltin O'rdani qo'lga kiritgandan so'ng, Temur kutganidek uning ta'siri va panohi ostida qolmadi. U o'z homiysiga lozim bo'lgan shukronani tez unitdi.

³¹ Ahmedov Bo'riboy "Sohibqiron Temur". Toshkent, "Xalq merosi". 1996-yil. 36-bet

Ibn Arabshoh o'zining "Ajoyib al-maqdur" asarida bu borada shunday fikrlarni bildirgan: "Dashti Qipchoq bepoyon podshohlik bo'lib, keng cho'llarni o'z ichiga olar edi. Uning sultoni To'xtamish Temurga qarshi urushib muxolif bo'lgan sultonlarning peshvozi, go'yo bayroqdori bo'lgan edi, chunki u Temurga adovat bildirib chiqqanlardan eng birinchisi bo'lib, Turkiston yerlarida unga qarshi jang qilgan edi".³²

1380 yilda Kulikova maydonida Oltin O'rda xoni Mamay ustidan qozonilgan g'alaba To'xtamishga Oltin O'rda taxtini egallab, Jo'ji ulusining har ikkila qismini yangidan birlashtirish imkonini berdi.

Oltin O'rdaning qayta birlashtirilishi va uning kuchayib borishi va buning ustiga To'xtamishning Jahongirlik siyosati Movaraunnahrda qaror topgan Temur davlati uchun nihoyatda xavfli bo'lib, Temurning faoliyatiga xalaqit beribgina qolmay, balki uning uchun doimiy tahdid ham edi. Bu xavfni bartaraf qilish uchun Temur To'xtamishga qarshi 1389-1391 va 1394-1395 yillarda 3 marta katta yurish qiladi. Ayniqsa, so'ngi ikki yurish uning uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Temur 1391 yilda 200 ming qo'shin bilan samarqanddan chiqib, qo'shinini Toshkentga o'tkazadi. Bahorda Qipchoq dashti orqali o'tib uralga yetib boradi. Temur o'zining 1391 yil aprelida, "Turon sultoni Temur Bulg'or hokim To'xtamishga qarshi 200 minglik askar bilan bu yerlardan o'tdi", degan satrlarni Ulug'tog' etagidagi qoyatoshlardan biriga o'ydirib yozdiradi. Temur va To'xtamish qo'shinlari o'rtasida so'ngi shiddatli jang 1395 yilda Shimoliy Kavkazda Terak daryosi vodiysida sodir bo'ladi. Bu safargi jangada ham Temur o'z dushmaniga qaqshatqich zarba beradi. Katta talofat berib mag'lubiyatga uchragan Oltin O'rda xoni rus knyazliklari tomon chekinib, uning qalin o'rmonzorlarida o'zga panoh izladi. Temur To'xtamishni rus yerlarida taqib etib Moskvagacha boradi.

³² Ibn Arabshoh, Ajoyib al-Maqdur (So'z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tayyorlagan). Toshkent "Mehnat", 1992-y, 147-bet

Xulosa qilib shuni aytish kerakki Temurning To'xtamish ustidan g'alaba qozonib Oltin O'rdaga bergan qaqshatqich zarbasi faqatgin O'rta Osiyo uchun emas, balki butun Sharqiy Yevropa, shuningdek Rus knyazliklari uchun ham buyuk ahamyat kasb etgan edi. Chunki Oltin O'rdaning, xususan uning so'ngi xonlari Mamay va To'xtamishlarning Rus yerlarida olib borgan uzliksiz talon - tarojlik yurishlari Moskva knyazlariga tahlika solib, uning atrofidagi Rus knyazliklarining yagona Rossiya davlatiga birlashishiga imkon bermay, ularning tinkasini quritgan edi. Bunday g'ovning barham topishi bilan shubhasiz, Rossiya davlatining markazlashuvi yo'lida tabiiy ravishda shart-sharoit vujudag keldi. Endilikda Temur o'zining diqqat e'tborini butunlay Eron, Iroq, Suriya Kichik Osiyo yarim oroli, Hindistonni bosib olishga qaratadi.

Poytaxtda Temur qisqa vaqt dam olgach, G'arbiy Osiyoga yangi safar hozirligini ko'rib, qo'shinlari bilan yo'lga chiqadi. Qish mavsumini u Qorabog'da o'tkazib, 1400 yilning yozida Suriyaga urush qiladi. Avval Xalab (Aleppo) va Bayrut shaharlari olinib, 1401 yilning boshlarida bir oylik qamaldan so'ng Damashq taslim bo'ladi. Damashq zabt etilgach Temur qo'shinga biroz dam berish maqsadida Qorabog'ga qaytadi. Chunki muttasil yurishlar, shiddatli janglardan horib behisob o'ljalardan medasi to'ygan qo'shin o'zinig avvalgi jangovorlik shiddatini yo'qotgan edi. Buning ustiga yoshi 60 dan oshib qolgan sohibqironning o'zi qattiq xastalangan edi. Ammo kasalik Temurning qaddini ham, irodasini ham buka olmadi. Shu ahvolda u usmonli turklarning sultoni Boyazidga Yildirimga qarshi kurash e'lon qiladi.

Amir Temur Yildirim Boyazidga xat yuborib, unda quyidagi so'zlarni yozadi: "Sulton Ahmad va Qora Yusufga o'xshash kasofatlarni Rum sohibi qanoti ostida bo'lishini istamayman. Ularni chiqarib yuboring; ularni qo'lga olib , o'sha joyda o'ldiring. Aks holda ustringizga qahrimiz doirasi yopiriladi",³³ - degan so'zlar bilan po'pisa qiladi.

³³ Ibn Arabshoh, Ajoib al-Maqdur (So'z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tayyorlagan). Toshkent "Mehnat", 1992-y, 255-bet

“Ibn Usmon (Boyazid) shoshqaloq va shijoatli kishi bo’lib, odil podshohlardan bo’lishiga qaramasdan unda zarracha ham sabr toqat yo’q edi. U taqvodor kishi bo’lib, diniga mustahkam edi. Agar u majlis yuqorisida turib maruza aytsa, tinmasdan harakat qilaverib istirobga tushaverib, ayvon chetiga kelib qolardi”.³⁴

Boyazid Temur maktubidan voqif bo’lib, uning xitobi mazmunini fahmlagach, go’yo nasha ivitmasi ichgan kishidek goh tovushini ko’tarib, goh pasaytirib dedi: “Bu uydirmalar bilan u meni qo’rqitmoqchimi? Yoki bu yolg’on yashiqalar bilan menga nisbatan fitna chiqarmoqchimi? Yoki bo’lmasa, meni Ajam podsholari misoli hisobladimi? Yoki gapini anglab bo’lmaydigan dasht totorlari kabi sanadimi? Yoki qo’shin yig’ishda hindlar lashkarlari kabi ko’rdimi? Mening askarlarimni tarqoqlikda Iroq to’dalari kabi hisobladimi?”³⁵ – deb, yomon so’zlar bilan Amir Temurni haqoratlaydi va so’zini davom etadi: “Bizning piyoda g’azotchilarimiz borki, ular suvoriy jangchilaridan ko’ra shiddatliroq jang qiladilar. Ular go’yo sindiruvchi sherlar, jasur qoplonlar, yirtqich bo’rilar kabi bo’lib, ularning boltalari o’tkir, tirnoqlari zafarlidir. Men bilamanki, bu so’zlar seni hech to’xtamasdan bizning mamlakatimizga tomon otlantradi. Agar sen kelmasang, sening xotinlaring uch taloq bo’lsin. Agar sen mening yurtimga kelsangu men senga qarshi qat’iy urush qilmay qochsam, u vaqtda mening xotinlarim uzil – kesil uch taloq bo’lsin”,³⁶ - degan so’zlar bilan o’z xitobini tomomlab, shu zaylda Amur Temur maktubiga javob qaytardi.

Amir Temur bilan Boyazid qo’shinlari o’rtasida jang Anqara shahridan bir milga yaqin joyda, 804 hijrat yili zulhijja oyining yigirma yettinchisi (28 iyul 1402 yil) chorshanba kunida bo’lgan edi. Har ikki tomondan hammasi bo’lib, 400 ming nafar yaxshi mashq ko’rgan, janglarda chiniqqan jangchi va lashkarboshilar ishtirok etadi. 200 minglik Temur qo’shinining o’ng qanotiga o’g’li Mironshoh,

³⁴ Ibn Arabshoh, Ajoib al-Maqdur (So’z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tayyorlagan). Toshkent “Mehnat”, 1992-y, 256-bet

³⁵ Ibn Arabshoh, Ajoib al-Maqdur (So’z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tayyorlagan). Toshkent “Mehnat”, 1992-y, 257-bet

³⁶ O’sha asar –B. 259.

chap qanotiga nabiralari Sulton Husayn va Halil Sultonlar bilan kenja o'g'li Shohruh qo'mondonlik qiladi. Samarqanddan yetib kelgan yangi jangovor qisimlardan tashkil topgan qo'shin markazini Temurning sevimli nabirasi va valiahdi Muhammad Sulton boshqaradi. Qo'shin markazining manglayida ichiga yarim oy shaklidagi oltin tug'ro o'rnatilgan to'riq ot yoli osilgan zangari davlat alami (Bayrog'i) muttasil tutib turilgan. Markaz va qanotlar ortida sohibqiron va uning ikki nabirasi Pirmuhammad va Iskandarlar boshliq zahiradagi qismlar joylashtirilib, ular jang holatini muttasil kuzatgan holda dushmanga to'satdan beriladigan hal qiluvchi zarbaga tayyor turgan.

Boyazid armiyasini o'ng qanotiga Sultonning qaynisi Serb knyazi Lazerivech qo'mondonlik qiladi. Bu qism o'tirg'itgich (radandoz) lar bilan qurollangan Serb polklaridan tashkil topgan edi. Makedoniyalik askarlardan iborat qo'shinning so'l qanotini Boyazidning o'g'li Sulaymon Chalabiy boshqarardi. Bu qanotini Boyazid turk suvoriylari bilan kuchaytirgan edi. Besh minlik piyoda "Yenicheri" lar hamda otliq sipohiy qismlardan iborat markaz esa Boyazid va uning o'g'illari Muso, Iso va Mustafolar tomonidan boshqariladi.

Ikki katta qo'shin o'rtasida boshlangan jang avjiga chiqib, hal qiluvchi pallaga yetganda Boyazid lashkarlarining Onado'li qismlari Temur tomoniga o'tib ketadilar. Manbalarning guvohlik berishicha, turklar lashkarlarining kattagina qismi dushmanga jangsiz taslim bo'lgan, natijada Sulton Boyazidning qo'shini batamom tor-mor etilib, o'zi asir olinadi. U bilan birga uning xotini Serb malikasi Olivera, o'g'illari Muso va Iso Chalabiyilar ham asirga tushadilar. Turk qavmining yengilmas sohibqironi Amir Temur bu zafarli g'alaba bilan butun Kichik Osiyo yarim orolini zabt etib, O'rta yer dengizining sharqiy sohilida joylashgan Izmir shahriga yetib boradi. Izmir zabt etilgach salbchilarning Yaqin Sharqdagi oxirgi qarorgohi tugatilib, egey dengizida joylashgan Hior va Lesbos orollaridagi Genuya mulklarining hukumdorlari taslim bo'ladilar. O'z navbatida itoatkorliklarini izhor etadilar. Temur Usmonli turklarning poytaxti Anqarani, shuningdek, Nikeya, Bursa va Izmir shaharlarini hamda, ko'plab qishloqlarni talon-taroj qiladi. Bursa

shahrida u Vizantiya va butun nosoro olamining Boyazidga yig'ib bergan bojlaridan iborat katta o'ljani qo'lga kiritadi. Birgina Bursa shahridan olingan oltin va javohirlarning o'zi kattagina karvonga yuk bo'lgan.

Ammo shu o'rinda Amir Temurning bag'rikengligini aytmadan fikrimizni davom ettirib bo'lmaydi. Ya'ni Boyazidning maktubidagi so'zlarni bir eslaylik. Unda agar Boyazid mag'lub bo'lsa, uning xotinlari uch taloq bo'lishi kerak edi. Ammo Amir Temur xotinlarga til tegizishi chig'atoyliklarda va turk qabilalarida eng katta gunoh bo'lib, oila haqqiga qilingan xiyonatdan azimligini ham ta'kidladi. Ya'ni Amir Temur dushmanining xotinlariga zulm qilmadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Temurning harbiy yurishlari, olib brogan janglarining oqibatlariga baho berilar ekan, Uning faoliyati qo'yilgan maqsad va rejallari jihatidan ikki bosqichga bo'linadi. 1- bosqich 1360-1386 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda Temur Movaraunnahrda markazlashgan davlat tuzish yo'lida kurashdi, Movaraunnahrni birlashtiradigan manfaatdor bo'lgan mahalliy zodagonlardan iborat ijtimoiy kuchlar yordamida o'rta asrlarning tarqoq feodal mulklarini birlashtirishi uchun kurash olib bordi. Temurning bu davrdagi faoliyatini O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti taraqqiyoti yo'lida shubhasiz ijobiy ahamiyat kasb etdi.

Temur faoliyatining ikkinchi bosqichi asosan 1386 yildan boshlanib, 1402 yilgacha davom etadi. Bu davrda Temur "Uch yillik", "Besh yillik" va "Yeti yillik" harbiy yurishlarini amalga oshirgan. Uning Oltin O'rda, Eron, Iroq, Zakavkazye, Kichik Osiyo, Misr va Hindistonda olib borgan yurishlari va jangu-jadallari, shubhasiz tajavvuzkorlik tusiga ega edi. Bu urushlar nihoyatda shavqatsizlik bilan olib borilgan.

Temurning istilo qilingan mamlakatlardagi zulmkor tartiblari ko'pincha qo'zg'olonlar ko'tarilishiga sabab bo'lardi. 1383-yilda Sabzavor va Hirot shaharlarida, 1387-yilda Isfaxon va Sherozda, 1401-yilda Bog'dodda katta xalq

qo'zg'olonlari bo'lib o'tadi. Bu qo'zg'olonlarni Temur shavqatsiz bostirib, qo'zg'olonchilarni qattiq jazolaydi³⁷.

Temurning harbiy yurishlari va jangu-jadallaridagi bunday faoliyati teranroq talqin etilib, unga baho beriladigan bo'lsa, shuni aytish mumkinki u avvalo Osiyo sarkardasi edi. Temur o'zining g'olib askarlari va qurollaridan o'z zamonasining taomili bo'yicha foydalangan. To'g'ri jazo nihoyatda qattiq, lekin ko'pincha adolatli bo'lgandir.

Shunday qilib, Temurning ko'p yillik harbiy yurishlari oqibatida, zo'rlik asosida bo'lsada, O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta sharq hamda shimoliy Hindistonni qamrab, feodal saltanati tashkil topdi. Ayni vaqtda bu davlat tasarrufidagi mamlakatlarda yashagan xalqlar o'rtasida bevosita iqtisodiy va madaniy aloqalar kuchayib , ularning keyingi taqdirida ijobiy rol o'ynadi.

³⁷ Ibrohim Mo'minov. "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli". Toshkent, "Fan". 1993-yil –B. 54.

Xulosa

Mustaqillik davri Amir Temur nomini poklash va u boshqargan saltanat tarixini o'rganish va xolisona ilmiy xulosalar chiqarishda muhim bosqich bo'ldi. Aynan mustaqillik sharofati bilan biz ulug' ajododimiz hayotining ko'pgina qirralarini o'rganish baxtiga erishdik. Ushbu jarayonning boshida birinchi prezident I. Karimov turganligi tahsinga loyiq.

Sohibqironning tarix oldidagi eng katta xizmati avvalo qudratli, markazlashgan davlat barpo qilinganligidir. "Uning davlatchilik borasidagi nafaqat o'z davri, balki kelgusi avlodlar uchun ham katta ahamiyat kasb etadi",- deb alohida ta'kidlaydi I. Karimov.

Sovetlar va kompartiya mafkurasi o'tmishimizni soxtalashtirishga butun kuchini sarfladi. Ammo, o'sha davrda tarixiy haqiqatni e'tirof etgan olimlar bo'ldi.

Temurga asosan obektiv, to'g'ri va ilmiy baho sovet tarixchilari, eng avval sharqshunos A. Y. Yakubovskiy tomonidan berilgan. Uni quyida keltiramiz: "To'xtamish qo'shinining Terak daryosi bo'yida tor-mor etilishi va 1395-yilda Berka Saroyning xarob qilinishi Oltin O'rdaga juda kuchli zarba bo'ldi, shundan keyin u o'zini hech o'nglamay olmadi. Qadimgi Rusga qanchadan-qancha jabr-zulm o'tkazgan davlat juda zaiflashdi. 1395-yildan keyin esa Oltin O'rda tushkunlikka tusha boshladi. Mamay qo'shinlarining 1380-yilda Kulikovo dashtida tor-mor etilishi Oltin O'rdaga berilgan birinchi zarba edi. 1395-yilda terak daryosi bo'yidagi mag'lubiyat va saroyning tor-mor qilinishi esa Oltin O'rdaga berilgan oxirgi zarba bo'ldi. Garchi Temur O'rta Osiyo manfaatlarini ko'zlagan hamda Moskva knyazlari bilan aloqa bog'lamagan hoolda Oltin O'rdaga qarshi kurash olib borgan bo'lsa-da, bu kurash natijasida u O'rta Osiyoni birlashtiribgina qolmasdan, balki obektiv ravishta Rus uchun juda katta xizmat qildi.

Temur O'rta Osiyoni kuchli bir davlatga aylantirish uchun Xorazmga va Oltin O'rdaga qarshi kurashgan bo'lsa, uning Eron, Zakavkazega va boshqa

uzoqroq mamlakatlarga qilgan yurishlari to'g'ridan-to'g'ri istilochilik va bosqinchilik maqsadida qilingan yurishlar edi.”

A.Y. Yakubovskiy Temurning Yevropa xalqlariga ko'rsatgan yana bir xizmati xaqida shunday yozadi: “1400-yilda Temur askarlari O'rta Osiyodan uzoqda – G'arbda turk sultoni Boyazid I va Misr sultoni Farajga qarshi urush olib boradi. O'sha vaqtda Temur ko'p xalqlarni, masalan, Kichik Osiyodagi Sivasni, Suriyadagi Halab, (Aleppo) ni o'ziga qaratib olgan edi. 1402-yilda Anqara yonida Temur ikkinchi marta Boyazid bilan jang qildi. Bu jang o'sha davrdagi eng katta janglardan bo'lgan edi. Har ikki tomondan 200 mingdan ortiq askar qatnashadi. Anqara yonida bo'lgan bu jangda Usmon Sulton Boyazid batamom tor-mor etildi va boyazid asir olindi. Bu g'alaba faqat Osiyo tarixi uchungina ahamiyatli bo'lib qolmadi. Temur o'zining bu g'alabasi bilan Yevropa xalqlariga ikkinchi marta xizmat etdi. Anqara yonida bu g'alaba va Boyazidning asir tushishi Konstantinapolning turklar – usmonlar tomonidan bosib olinishi qariyb 50 yil orqaga surib yubordi”.

Bu yerda shuni ham aytish kerakki, Temur Shimoliy Afrika xalqlari, jumladan Misr xalqiga yordam ko'rsatdi. Chunki Boyazid ularning yerlariga ham xavf tug'dirib turardi. Keyinchalik misr ham Vizantiya kabi Temur hokimiyatini urushsiz tan oldi va unga bo'ysundi.

XIV asrning 49-50-yillarda Movorounnahrda tarixiy vaziyat chet el qaramligida, mo'g'ul xonligidan ajralib, mustaqil kuchli hokimiyat tuzishga manfaatdor bo'lgan feodal aslzodalar orasidan ayrim guruhlar yetishib chiqq boshladi. Chig'atoy ulusu hokimi Kebekxonning 1318-1326-yillardagi pul va ma'muriy islohoti o'tkazishidan va boshqa ishlardan ham maqsadi shunday bo'lsa kerak.

Bular – masalaning bir tomoni. Masalani ikkinchi, eng muhim tomoni shundaki, keng xalq ommasi ko'p mashaqqatlar bilan uzoq vaqt ichida irgatsiya tarmoqlarini – ariq, zovur, suv omborlari, to'g'onlarni tikladi, dehqonchilik, hunarmandchilikni yo'lga qo'ydi, ayn vaqtda o'zaro urushlarga, mayday feodal

hokimlarning o'zboshimchaligiga, mo'g'ul xoni va Oltin O'rdaning turli noiblari bosqinchilikka qarshi kurash olib bordi.

Keng xalq ommasining intilishi Movorounnahr va Samarqandda boshlangan, Samarqand madrasasining talabasi mavlonozoda, paxta tikuvchi Abu Bakr Qalviy va mohir mergan Xurdakiy Buxoriylar rahbar bo'lgan sarbadorlar harakatida bu obektiv jarayon ayniqsa yaqqol ko'rindi. Demak, feodal aristokratiyasi yoki oddiy mehnatkash xalq orasidan kuchli shaxslar yetishib chiqishi o'sha davrdagi tarixiy zaruriyati edi. Ma'lumki, zaruriyat tasodifiyat orqali namoyon bo'ladi.

Temurning O'rta Osiyoda, Movorounnahrning hozirgi Qashqadaryo viloyat, Shahrisabaz yaqinidagi Xo'jailg'or qishlog'ida Barlos begi Tarag'ay oilasida dunyoga kelishi sof tasodifiyat, albatta. Lekin bunday shaxsning yuzaga kelishi davrning, zamonning taqazosi, Chig'atoy ulusining zulmi, mayday feodal beklarining Movorounnahrda to'xtovsiz bosqinchilik yurishlari azoblaqngan, xonavayron bo'lgan, 150 yil davomida chet el hukmronligida tinkasi qurigan mamlakatning, xalqning mustaqillikka erishish talabi edi. Bu tarixiy zaruriyat Temurda, uning lashkarboshilarida ravshan ko'rindi, temur davlat arbobi sifatida ma'lum darajada bu ehtiyojni, talabni, zaruriyatni o'ziga aks ettirdi, ya'ni Movorounnahrda mustaqil markaziy birlahsgan davlat tuzdi, mamlakat ehtiyojlariga javob berdi. Mulkdor sinflar – yirik zamindorlar, savdogarlar, karvonsaroy egalari hamda, ma'lum ma'noda va ma'lum darajada umuman aholi talablariga peshvoz chiqib mamlakatning ko'p joylarida qurilishlar qildirdi, kamida yuz yigirma yil davomida nisbiy osoyishtalik o'rnatdi. Bu shubhasiz, mamlakatda iqtisod, madaniyat, fan adabiyot va san'atning o'sishida muhim omil bo'ldi. Temurning O'rta Osiyo tarixidagi xizmati, ana shulardan iboratdir.

Movorounnahr va Xuroson tarixining keyingi davrlarida Shohruh, Ulug'bek, Mirzo Abu Said, Sulton Ahmad, Husayn Boyqaro, ayniqsa, Hindistonda Bobur va Arabshohrar O'rta Osiyoda Temur davrida qaror topgan iqtisod va madaniyatni rivojlantirish bilan bog'liq eng yaxshi an'analarni davom etirdilar.

Qurilish hamda madaniyatning qadriga yetgan Temurni O'rta Osiyo xalqlari hurmat qiladilar, uning Samrqanddagi maqbarasini saqlab, asrab kelmoqdalar.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Ibn Arabshohning "Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur" (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari) asari u o'z yurti Damashqqa qaytgach, uzoq muddat (1422-1429) shu yerda yashadi, asar shu yerda yaratilgan bo'lishi kerak. U o'z ota yurtiga 33 yoshida qaytgan, 21 yil o'zga yurtlarga yurganva uning kamoloti shu yerda shakllangan. Albatta, uning qarashlarida Amir Temurga nisbattan g'ayriy munosabat bo'lishi tabiiy, ana shu munosabat "Ajoib al-maqdur" asarida ufurib turadi, voqea-hodisalar bayonida buyuk Temurga nisbattan uning salbiy xislatlarini bayon etishda mubolag'a ustunlik (ustuvorlik) qiladi. Shulardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, bu ajoyib tarixiy manbadan foydalanish jarayonida uyg'oq tafakkur vatanqidiy nuqtai nazardan yondashib, Sharafuddin Ali Yazdiy, Nizomuddin Shomiyning "Zafarnoma" lari bilan taqqoslangan holatda o'rganmoq lozim va zarur, chunki bu asarlar bir-birini to'ldiradi hamda ayrim noaniqliklarni oydinlashtiradi. Ta'kid joizki, bu asar Ibn Arabshoh tomonidan Amir Temur vafotidan ancha keyin, hech qanday tazyiqlarsiz, erkin tarzda yozilgan, muallif o'z dilidagi gaplarni bermalol qog'ozga tushura olgan. Bundan qat'iy nazar Ibn Arabshohnin "Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur" asari nafaqat Temurshunoslikda, balki Vatan tarixini o'rganishda muhim manba va undan tarixchilar ko'p davrlar bahra olaveradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Karimov I.A. asarlari

- 1.1. Karimov I. A. “ Karimov I. A. “ Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi”. Asarlar. 5-jild.
- 1.2. Karimov I. A. “Xalkimiz bor ekan, Amir Temur barxayotdir”. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. / Asarlar, 5 - jild. T: "O'zbekiston", 1996-yil
- 1.3. Karimov I. A. Amir Temur - faxrimiz, gururimiz. T: O'zbekiston, 1993-yil
- 1.4. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q, T: "Sharq", 1998-yil
- 1.5. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T:“Ma'naviyat”, 2008-yil
- 1.6. Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent, 2011.
- 1.7. Karimov I.A. O`zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so`zi //O`zbekiston ovozi.-2010. 1-sentyabr.
- 1.8. Karimov I.A. Adolat har ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. J.7. –T.: O`zbekiston, 1999. B.239.
- 1.9. Karimov I.A. Tarixdan saboq olib, zamon bilan hamqadam bo'lib yashash-bugungi hayotning o'tkir talabi. birinchi prezident I.Karimovning interv'yusidan kelib chiqadigan xulosalar //O`zbekiston ovozi.-2012.-15 may.

2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh.M. asarlari:

- 2.10. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: “O`zbekiston” 2017.
- 2.11. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: “O`zbekiston”, 2017.

- 2.12. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: “O`zbekiston”, 2017.
- 2.13. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O`zbekiston”, 2017.

3. Asosiy adabiyotlar:

- 3.14. Ahmedov Bo'riboy “Sohibqiron Temur”. Toshkent, “Xalq merosi”. 1996-yil.
- 3.15. Ahmedov Bo'riboy “Amir Temur va Ulug'bek”. Toshkent, 1994-yil
- 3.16. Ahmedov Bo'riboy “Amir Temur” tarixiy roman. Toshkent. A. Qodiriy nomidagi ‘Xalq merosi’ nashriyoti. 1995-yil.
- 3.17. Asqarov A. “Temur va Ulug'bek davri taixi”. Toshkent. 1996-yil
- 3.18. Abdulahad Muhammadjonov. “Temur va temuriylar saltanati”. Toshkent 1994-yil .
- 3.19. Ziyoyev Hamid. “Tarixning ochilmagan sahifalari”. Toshkent. “Mehnat”. 2003-yil .
- 3.20. Ibn Arabshoh. “Amir Temur tarixi”. (So'z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tayyorlagan) Toshkent “Mehnat” , 1992-y.
- 3.21. Ibrohim Mo'minov. “Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli”. Toshkent, “Fan”. 1993-yil
- 3.22. Ibrohim Mo'minov. “Amir Temur ibn Tarag'ay Ibn Tarag'ay Bahodir. //Fan va turmush. 1990-yil. 3-4-sonlar. I-II qismlar.
- 3.23. Ivanin M. “Ikki buyuk sarkarda Amir Temur va Chingizxon”. Toshkent. “Fan” nashriyoti. “Xazina” ilmiy ijodiy birlashma 1994-yil
- 3.24. Nizomuddin Shomiy. “Zafarnoma” Toshken. “Ozbekiston” 1996-yil
- 3.25. Sharfuddin Ali Yazdiy. “Zafaroma” Toshkent. “Sarq”, 1997-yil
- 3.26. Hilda Xukhet. “Yeti iqlim adolati”. Toshkent. “Adolat”, 1999-yil
- 3.27. Sh.A.Hayitov, K.J.Rahmonov, Sh.J.Hayitov “Amir Temur siymosi barhayot”, “Buxoro” nashriyoti, 2015.